



O'zbekiston Respublikasi
Ichki ishlar vazirligi nashri

Vatanga va xalqqa sadoqat bilan xizmat qilish – oliy burchimiz!

Postda На посту



2025-yil 30-yanvar
payshanba

№ 5 (4699)

Gazeta 1930-yil 12-maydan chiqa boshlagan / Web-site: www.postda.uz / E-mail: info@postda.uz

**TANTI ELNING
INCHI UCHUN**



Qashqadaryo viloyati 1924-yilda tashkil etilgan. Mamlakatimizning janubi-g'arbida, Qashqadaryo havzasida, Hisor va Zarafshon tog' tizmalari orasida joylashgan. Shimoli-g'arbdan Buxoro va janubi-sharqdan Surxondaryo viloyatlari, janubi-g'arb va g'arbdan Turkmaniston Respublikasi, sharqdan Tojikiston Respublikasi hamda Samarkand viloyati bilan chegaradosh. Tarkibida 14 ta tuman, 12 ta shahar, 4 ta shaharcha mavjud.

Hisor tog'lari tizmasida, dengiz sathidan 2200 metr balandlikda joylashgan Shahrisabz tumanidagi G'ilon qishlog'ida bo'lsangiz, ko'z o'ngingizda ona tabiatning tilsim-

larga boy mo'jizasi gavdalananadi. 6 mingga yaqin aholi istiqomat qiladigan qishloq qo'shni Tojikiston sarhadlari bilan tutashib ketgan. Bu yerda jamoat tartibini saqlash va

huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishga tuman IIB HPB 51/1-sonli huquq-tartibot maskani profilaktika inspektori, kapitan Ulug'bek Rajabov mas'ul.

Qashqadaryo viloyatida fidokorona xizmat qilayotgan ichki ishlar organlari xodimlarining faoliyati haqidagi maqolalar bilan 12–13-sahifalarda tanishasiz.

**ХАЁТБАХШ
ИСЛОҲОТЛАР**
фукаролар ундан миннатдор



3

**FIDOYI AYOLLAR
ORAMIZDA**

5

**КЕГЕЙПИ:
РИВОЖЛANNИШ ЙУЛИДА...**



18



BURCHGA SADOQAT NAMUNASI

Davlatimizning yuksak mukofotlari bilan taqdirlanganlar orasida IV Qorovul qo'shinlariga qarashli 7536-harbiy qism 3-batalyon 2-o'qchi guruh qorovul boshlig'i, katta serjant Odil Pozilov ham bor.



Navoiy viloyati Karmana tumanida tug'ilib voyaga yetgan Odil Buxoro viloyatidagi Qorovul qo'shinlariga qarashli harbiy qismda yigitlik burchini o'tagach, harbiy qismning o'zida kontrakt asosida xizmatga qabul qilindi.

Shomamatov, Fozil Norboevlar us-tozi bilan yelkama-yelka turib xizmat olib borishmoqda.

Taqdirlanganimni eshitgan onam meni quchoqlab, bag'riga bosganida kasbimdan judayam faxlandim. Oilam, mahalladoshlar

qizg'in, mas'uliyatli damlar boshlandi. Sabr-bardoshli, tirish-qoq, intiluvchan harbiy xizmatchi, sohaning sir-asrorlarini egal-lashida ustozlari, ham-kasblarining yordami asqatdi.

Keyinchalik Chirchiq shahridagi Serjantlar tayyorlash məktəbida o'qib, bilimini oshirdi, tajribasini boyitdi.

Mana, yigirma to'rt yildirki, katta serjant Odil Pozilov jangovar safda, yurt osoyishtaligi yo'lida xizmat qilib kelmoqda. U tarbiyalagan shogirdlar – serjantlar Ilyos Mamatov, Sardor Sulotonov, Muhriddin Normurodov, Mirjalol Qarshiyev, Rustam Kuchiboyev, oddiy askarlar – Shohruz

Vatan himoyachilar kuni bayrami arafasida Bektemir tumani II OFMB JTSB saf bo'linmalari PPX otryadi inspektor, safdor Javlonbek Sharipovning oilasida o'zgacha shukuh hukmron bo'ldi. Zero, ota-onasi uchun farzandining yutug'idan kattaroq xursand-chilik bo'limasa kerak. Hakimjon aka va Mashhura opa dilbandi «Jasorat» medali bilan mukofotlanganidan g'ururlanib, ko'zlarida quvondosh yoshlari ila uni uzoq duo qilishdi.

– O'g'limning xizmatlari shunday e'tiborga olinishi bizni juda mammun etdi,
– deydi uning otasi.
– Oddiy safdorning tinchlik-osoyishtalik yo'lidagi kamtarona xizmatiga berilgan bunday rag'batdan ko'ksi tog'dek ko'tarilgan oila a'zolarimiz nomidan Prezidentimizga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

Lavhamiz qahramoni turmush o'rtog'i Nodiraxon bilan birgalikda ikki nafar farzandini o'qimishli, el-yurt koriga yaraydigan barkamol insonlar bo'lib yetishishi yo'li-da tarbiyalab kelmoqda. Uning yana bir niyati faoliyatini yanada samarali olib borish bilan bir qatorda, otasi va o'zining orzularini ro'yobga chiqarish uchun IV Akademiyasiga o'qishga kirish.

...Javlonbek yigitlik burchini ado etib qaytgach, ichki ishlar organlarida xizmat qilish niyatini aytganida, ota-onasi o'g'lini qo'llab-quvvatlashdi. Yosh, g'ayrat-shijoati yuzidan ufurib turgan yigit barcha sinovlardan muvafqaqiyatl o'tib, Toshkent shahar II BB PPX va JTSB ga haydovchi lavozimiga qabul qilindi. Unga ustozlari – katta serjant Abdusamat Tojiboyev, safdor Elmurod Ergashovlar kasb sir-asrorlarini o'rgatishdi.

Hozirgi lavozimida 2018-yildan buyon xizmat olib boryapti. O'tgan yil davomida huquqbazarlik sodir etishda gumonlangan 120 nafar shaxsni ichki ishlar organlariga olib borgan, shundan 85 nafariga nisbatan ma'muriy chora ko'rlishiga o'zining hissasini qo'shgan. Sohaviy xizmat xodimlari bilan o'tkazilgan hamkorlikdagi tezkor tadbirlar davomida 3 ta o'g'irlik jinoyatini va 4 ta giyohvandlik moddalari bilan bog'liq jinoyatni fosh etishda hamda qidiruvda bo'lgan 8 nafar shaxsni qo'iga olishda faol ishtirot etgan. Shuningdek, huquqbazarlik va jinoyatchilikning oldini olishda «Nu-

rafshon» mahallasi faollari hamda profilaktika inspektorlari bilan hamkorlikda tadbirlar olib borishda ham munosib ishtirot etib kelmoqda.

«Qo'yiliq» bozori hududida xizmat vazifasini o'tayotgan paytida, o'g'irliklar sodir etib, jazodan qochib yurgan, anchalaydan buyon qidiruvda bo'lgan jinoyatchini ko'rib qoladi. Qidiruvdagagi shaxs PPX xodimi uni ushlab olishiga ko'zi yetgach, jon achchig'ida o'zini Chirchiq daryosiga otadi. Ammo Javlonbek hech ikkilanmay, uning ortidan o'zini suvgi tashlab, yana bir bor jazodan qutulib qolmoqchi bo'lgan kimsaning hayotini saqlab qolib, uni qo'iga olishga muvaffaq bo'ladi.

Qidiruvdagagi kimsaning o'zi ham keyinchalik osoyishtalik posbonining jasoratiga tan berib, hayotini saqlab qolgani uchun unga minnatdorlik bildirganining o'zi ham safdor Javlonbek Sharipovning jasoratiga berilgan munosib baho aslida.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.



Xizmat faoliyatini nazoratchi lavozimida boshlagan lavhamiz qahramoni ikki yildan so'ng Markaziy harbiy okrug Serjantlar tayyorlash məktəbiga o'qishga yuborildi. O'qishni bitirib qaytganidan so'ng, xizmatni guruh komandiri o'rinnbosari lavozimida davom ettirdi. Ana shu davrдан boshlab, uning hayotida yanada

ham quvonishdi. Davlatimiz rahbariga ushbu mukofot uchun katta minnatdorlik bildiraman. Bunday yuksak ishonchni oqlashga va'da beraman, – deydi fidoyi harbiy so'z yakunida.

Mirzoqul AHADOV,
o'z muxbirimiz.

ОЛТИАРИҚ ТОМОНЛАРДА

ХАЁТБАХШ ИСЛОХОТЛАР

фуқаролар ундан миннатдор

Олтиариқ туманининг «Янгиараб» МФЙда яшовчи Сафура Омонова қўлида гулдек ҳунари бор-у, аммо вақтинча ишсиз юрганди. З-сектор раҳбари, туман ИИБ бошлиғи, полковник Илҳомжон Сотвоздиев «хона-донбай» ўрганишларда, аёлнинг ижтимоий аҳволидан хабар топиб, унга субсидия асосида тикув машинаси ажратилди. Натижада аёл ўзини ўзи банд қилиб, муким даромад манбаига эга бўлди.

— Яқинда Сафура Омона каби 23 нафар ишсиз хотин-қизга субсидия асосида тикув машинаси ва электр печлари олиб бериб, уларнинг бандлигини таъминладик, — дейди сектор котиби, майор Икромжон Ҳасанов. — З-сектор худудидаги 30 та эҳтиёжманда оила ички ишлар органларига биритирилган бўлиб, маҳалла еттилиги билан биргаликда ҳар бир оиласи камбағалликдан чиқариш бўйича манзилли ишлар қилинмоқда. Бугунги кунга қадар 4 нафар фуқаро ишга жойлаштирилди, 1 нафарига тадбиркорлик

фаолиятини бошлиши учун имтиёзли кредит берилди, 8 нафарига субсидия асосида тикув машиналари ва пиширик печлари топширилди, 3 нафари эса касб-ҳунарга кайта ўқитилмоқда.



З-сектор раҳбари «Бунёдкор» маҳалласида истиқомат қилувчи Муҳайё Обидованинг дардига малҳам бўлди. Кўпдан бери хаста ётган бу қизнинг онаси жарроҳлик амалиёти учун маблағ топишда амалий ёрдам сўраб мурожаат қилган эди. Бу ҳайрли иш учун зарур маблағ тўпланди ва қиз шифо топди. Фарзан-

дининг соғайганини кўрган она қувончи ичига сифмай, сектор раҳбари номига миннатдорлик хати йўллади.

19 та маҳалла фуқаролар йигинидан таркиб топган З-секторда 17 033 та хона-дон мавжуд бўлиб, 59 947 нафар аҳоли истиқомат қилади. Шунингдек, худудда 12 та умумий ўрта таълим мактаби, 13 та мактабгача таълим ташкилоти, 4 та ҚВП ва оиласиб поликлиника, 100 дан зиёд тадбиркорлик субъектлари мавжуд.

Ўтган йилда 162 нафар йигит-қиз «Ёшлар дафтари»га киритилган бўлиб, уларнинг барчасига турли даражада амалий ёрдам кўрсатилди. Масалан, 118 нафар ёшга ўқув-шартнома пуллари тўлаб берилди, 18 нафарига субсидия асосида асбоб-ускуналар тақдим қилинди, 7 нафари-

га сафарбарлик чақируви резерви учун давлат божи тўланди, 9 нафари ўқув курсларига йўналтирилди. Таълим муассасалари ва маҳаллаларда 100 мартаға яқин ҳуқуқий тарғибот тадбирлари ўтказилди.

Сектор худудида истиқомат қилаётган 5742 нафар ёшнинг рўйхати шакллантирилиб, тоифаларга ажратиб олинди. Жиноят содир этишга мойил ва оғир тоифадаги ёшлар эса оталиққа олинниб, уларнинг муаммолари манзилли ўрганилди. Ҳозирда барча оталиққа олинган ёшлар билан зарур чора-тадбирлар амалга оширилмоқда.

— Маҳаллалар инфратузилмасини яхшилаш бўйича ҳам кўплаб ҳайрли ишларни амалга оширидик, — дейди майор Икромжон Ҳасанов.

— Масалан, аҳолини тоза ичимлик суви билан таъминлаш мақсадида «Зилол», «Жарқўрғон», «Мустақиллик», «Истиқлол», «Янгиараб» ва «Фаровон» маҳаллаларига 6 та сув қудуғи ўрнатилиб, насос ва қувурлар янгисига алмаштирилди. «Жўрак», «Янгиараб», «Жарқўрғон» ва «Чордара» МФЙларининг ички йўллари асфальт қилинди.

Сектор раҳбарининг халқа яқинлиги ва амалга оширилаётган бу каби ҳаётбахш ислоҳотлар фуқароларнинг миннатдорлиги ҳамда бугунги кунидан розилигига сабаб бўлаётгани қувонарлидир.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН – ЯНГИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ

Яқинда Олтиариқ тумани ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлинмасининг янги замонавий биноси қурилиб, фойдаланишга топширилди. Бу ерда соҳа ходимлари ва фуқаролар учун барча шарт-шароитлар яратилди.



**Олтиариқ тумани
1926 йил 29 сентябрда
ташкил этилган. Туман
шимолдан Наманган ви-
лояти, жанубдан Қирғизис-
тоннинг Қадамжой райони би-
лан чегарадош. Майдони 0,63 минг
км². Аҳолиси 230 минг кишидан зиёд.
2 та шаҳарча ва 72 та маҳалла фуқаро-
лар йигини бор. Маркази – Олтиариқ
шаҳарчаси.
Туман аҳолиси боғдорчилик-
да катта тажрибага эга. Ай-
ниқса, Олтиариқ ўзининг
бодринг ва узуми билан
машхур.**



Абдувосит СИДИҚОВ,
ӯз мухбиришимиз.



Аспект профилактики

«НАША ТЕРРИТОРИЯ ОТВЕТСТВЕННОСТИ»

Инспекторы подразделений профилактики правонарушений Управления обеспечения безопасности на железнодорожном транспорте Ташкентского региона во взаимодействии с ответственными работниками АО «Ўзбекистон темир йўллари» осуществляют совместную деятельность. Цель – предупреждение несчастных случаев.



– Наша территория ответственности охватывает пять махаллей города Ташкента – Олтин водий, Биродарлик, Заминобод, Кушбеги, Башлық, – говорит старший инспектор профилактики отделения обеспечения безопасности на станции «Тукимачи» старший лейтенант Жонибек Номозов. – В минувшем году провели свыше 220 рейдов, по результатам которых в отношении 356 нарушителей составлены административные протоколы. В соответствующие органы направлено 18 представлений для устранения недостатков.

Особое внимание уделяется профилактическим беседам с населением. Инспекторы регулярно встречаются с жителями махаллей, учащимися школ, рассказывая о правилах безопасного поведения на железной дороге.

Организовали 121 встречу с жителями и школьниками. Недавно такие встречи состоялись в махаллях Биродарлик, Башлық, Заминобод, а также в школе №127. Еще раз напомнили о

необходимости переходить пути в установленных местах, призвали подростков быть внимательными – «развлечения» на железной дороге могут закончиться трагически, раздали специальные буклеты.

Помимо работы с населением, инспекторы проводят мероприятия и среди путейцев. В ходе встречи, проходившей филиале по технической и технологической подготовке, ремонту пассажирских вагонов (ВЧД-2), обсуждались вопросы соблюдения техники безопасности. На нее были приглашены сотрудники подразделения по борьбе с терроризмом Департамента обеспечения безопасности на объектах транспорта и туризма МВД.

Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.

■ Бухарская область



ПОСТАНОВЛЕНИЕ И ЕГО ИСПОЛНЕНИЕ

В УВД области состоялся учебно-практический семинар по изучению положений Постановления Президента Республики Узбекистан от 3 января 2025 года «О мерах по созданию безопасной среды и дальнейшему повышению эффективности системы раннего предупреждения правонарушений в махаллях республики в 2025 году».

В своих выступлениях заместители начальника УВД подполковники А. И намов, У. Аскаров акцентировали внимание на мерах по внедрению новых механизмов обеспечения общественной безопасности, ранней профилактики правонарушений, подчеркнули значимость адресных мероприятий, осуществляемых среди населения в рамках системы социальной профилактики.



■ г. Ташкент

СДЕЛАТЬ ПРАВИЛЬНЫЕ ВЫВОДЫ

Реализуются меры по дальнейшему повышению эффективности работы по исправлению осужденных. Они основываются на индивидуальном подходе к осужденным, направлены на стимулирование у них правопослушного поведения.

В махалле Олтинтопган Бектемирского района состоялось выездное судебное заседание, на котором рассмотрены представления в отношении лиц, состоящих на учете службы пробации.

Руководствуясь принципом гуманизма и в соответствии со ст. 73 УК



к 10 осужденным, твердо вставшим на путь исправления, применено условно-досрочное освобождение от отбывания наказания. Вместе с тем в отношении одного поднадзорного, уклоняющегося от выполнения установленных требований, принято решение о замене ранее вынесенного ему наказания на более суровое – ограничение свободы. С подучетным контингентом проведена профилактическая беседа о правовых последствиях несоблюдения правил отбывания наказания.

Соб. корр.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

FIDOYI AYOLLAR ORAMIZDA

Mamlakatimizda Yurtboshimiz tomonidan xotin-qizlarimizga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Ichki ishlar vazirligi tomonidan ham erkaklar bilan bir safda turib, egniga forma kiygan xodimalarning kasbiy bilim va malakalarini oshirib borish, moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash, sog'lom ishchanlik muhitini

yaratish, tashabbuskorligiga keng yo'l ochish, ijodiy qiziqishlarini rag'batlantirish borasida turli ko'rrik-tanlovlardan tashkil etilmoqda. Jumladan, yaqinda «Fidoyi ayol xodima» ko'rrik-tanloving huddular kesimidagi bosqichlari o'tkazilib, g'olib va sovrindorlar aniqlandi hamda respublika bosqichiga yo'llanma olishdi.

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI



1-o'rin – Nargiza Ibragimova, Taxiotosh tumani IIB JXX HPB voyaga yetmaganlar va yoshlar bilan ishlash guruhi katta inspektori, leytenant;

2-o'rin – Shaxribanum Daliyeva, vazirlikning JXX JTSB Patrul-post xizmati otryadi patrul-post xizmati inspektori, safdor;

3-o'rin – Ulmeken Zaripbayeva, vazirlik huzuridagi Tergov boshqarmasi tergovchisi, kapitan.

TOSHKENT SHAHRI



1-o'rin – Lobar Rahmonova, Yakkasaroy tumani IIOFMB Tashkiliy bo'lim tezkor boshqaruvi markazi operatori, safdor;

2-o'rin – Diyora Urozqulova, Uchtepa tumani IIOFMB inspektori, katta leytenant;

3-o'rin – Husnora Qodirova, Yangihayot tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi katta surishtiruvchisi, mayor; Dilshoda Xuanova, Yunusobod tumani IIOFMB huzuridagi Tergov bo'limi katta surishtiruvchisi, katta leytenant.

NAMANGAN VILOYATI



1-o'rin – Rayhonoy Yo'idosha-liyeva, Namangan shahar IIB xodimasi, katta leytenant;

2-o'rin – Lolaxon Nizamova, viloyat IIB JXX HPB VEIHYKM xodimasi, katta serjant;

3-o'rin – Feruza Mirzaxmatova, viloyat IIB xodimasi, safdor.

FARG'ONA VILOYATI



1-o'rin – Gulshodaxon O'ktamova, Quvasoy shahar IIB JXX HPB xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, mayor;

2-o'rin – Zarifa To'xtanazarova, Farg'ona tumani IIB huzuridagi tergov bo'linmasi surishtiruvchisi, leytenant;

3-o'rin – O'g'iloy Qo'ldasheva, Qo'shtepa tumani IIB Tashkiliy bo'linma kanselyariya boshlig'i, safdor.

BUXORO VILOYATI



1-o'rin – Firuza G'afarova, viloyat IIB JXX JTSB birinchi tumanlararo konvoy guruhi konvoychisi, safdor;

2-o'rin – Sabina Esh-turdiyeva, viloyat IIB JXX HPB VEIHYKM tarbiyachisi, serjant;

3-o'rin – Maftuna Hamidova, Kogon shahar IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, mayor.

XORAZM VILOYATI



1-o'rin – Zuhra Oljanazarova, Urganch shahri bo'yicha IIOFMB JXX HPB profilaktika inspektori, katta leytenant;

2-o'rin – Adolat Nurmanova, Yangibozor tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan;

3-o'rin – Nasiba Arтиqova, Xonqa tumani IIB JXX HPB Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektori, kapitan.

QASHQADARYO VILOYATI



1-o'rin – Charos Shamsutdinova, viloyat IIB M va FRB kanselyariya boshlig'i, safdor;

2-o'rin – Muhayyo Norqulova, viloyat IIB JXX HPB VEIHYKM tarbiyachisi, serjant;

3-o'rin – Shohista Mahmayusopova, Shahrisabz shahar IIB JXX HPB XQMB katta inspektori, kapitan.

QOROVUL QO'SHINLARI



1-o'rin – Hilolxon Ismoilova, Zarafshon shahridagi 7551-harbiy qism qurol-aslaha xizmati mas'ul ijrochisi, kichik serjant;

2-o'rin – Feruza Quvatova, Toshkent viloyati da joylashgan 7535-harbiy qism ta'minot batalyoniga katta radiotelegrafisti, kichik serjant;

3-o'rin – Malohat Roziyeva, Navoiy shahridagi 7532-harbiy qism qurol-aslaha xizmati mas'ul ijrochisi, kichik serjant.

■ Джизакская область

КОГДА ПРОФЕССИЯ - ПРИЗВАНИЕ

Старший эксперт экспертно-криминалистической группы Зааминского районного отдела внутренних дел майор Баҳриддин Тоҷибоев завершил дактилоскопическую экспертизу. Четыре отпечатка пальцев, обнаруженные на месте происшествия, не принадлежали владельцам жилья. Это указывало на то, что в доме побывали неизвестные...

В ходе расследования сосед потерпевшего, Б. Ж., и, проживающий в махалле Пахтакор, Х. М., признались в совершенной краже. Преступники «обчистили» дом среди ночи, когда хозяева были в отъезде.

Профессионализмом майора Баҳриддина Тоҷибоева заслужил уважение среди коллег. В прош-



лом году во многом благодаря его экспертизам удалось раскрыть три кражи, два преступле-

ния, связанных с незаконным оборотом наркотиков, одно преступление против чести и до-

стоинства человека. Кроме того, эксперт провел три дактилоскопические, двенадцать специальных химических и восемьдесят шесть химических экспертиз по преступлениям, совершенным в Зааминском, Зарбордском и Янгиабадском районах.

Герой очерка имеет допуск на проведение баллистических, химических, специальных химических и дактилоскопических исследований.

Майор внес вклад в установление личности человека, незаконно пересекшего границу. Вычислить его удалось благодаря экспертизе оставленных на месте происшествия отпечатков пальцев рук.

Эффективная деятельность Баҳриддина Тоҷибоева не раз была отмечена руководством.

**Алижон АБДУСАТТОРОВ,
соб. корр.**

Границы мастерства

ВЕРА В ЛЮДЕЙ

В редакцию обратилась жительница махалли Домбрабад Чиланзарского района столицы Сайёра Алиева с просьбой выразить через газету искреннюю благодарность старшему инспектору профилактики капитану Бахтиёржону Мусурмонову.

Пожилая женщина оказалась в непростой ситуации: соседка, которой она доверяла, взяла у нее в долг 1 миллион сумов и не спешила возвращать. Для бабушки потеря такой суммы стала ударом.

«Сотрудник внимательно выслушал меня, понял, что я потеряла не только деньги, но и веру в людей. Он заверил, что предпримет все законные меры», – поделилась Сайёра Ахмедовна.

Капитан Мусурмонов провел проверку по данному факту. Собрал необходимую информацию о должнице, посетил ее дом. В ходе беседы женщина признала свою вину. Инспектор профилактики напомнил ей о действии закона и о совести, о том, что она сделала человеку больно... Женщина пообещала, что через неделю вернет долг. Но уже через два дня Сайёра опять пришла в опорный пункт. Ее лицо сияло. Бахтиёржон понял: он сделал все правильно...

Капитан Б. Мусурмонов в органах внутренних дел служит с 2018 года, причем только в службе профилактики правонарушений. Несмотря на то, что в



махалле Домбрабад, где проживает свыше 7,2 тысячи человек, он работает относительно недавно, уже успел завоевать авторитет среди жителей.

– Нельзя оставаться безучастным к проблемам людей, – подчеркивает наш собеседник. – И это основной принцип нашей службы.

**Радик ТУМПАРОВ,
соб. корр.**

Противодействие торговле людьми

ПЛАН СОРВАН

Торговля людьми – противоправное деяние, жертвы которого лишаются свободы, достоинства, подвергаются физическому и психологическому насилию.

В ходе очередного мероприятия «Безопасная территория», проведенного сотрудниками оперативных подразделений ГУВД столичной области, в международном аэропорту Ташкента задержана Н. К., жительница города Нурафшана, 1999 года рождения.

Она путем обмана пыталась отправить двух знакомых ей девушек (обеим по 21 году), проживающих

в Бекабаде и Уртачирчикском районе, в Стамбул (Турция) для занятия проституцией.

План вербовщицы сорван благодаря действиям правоохранителей. В отношении задержанной возбуждено уголовное дело по ст. 135 («Торговля людьми») УК Узбекистана. Ведутся следственные действия.

Соб. корр.

ФОТО ИЗ АРХИВА



Взаимодействие – ключ к успешной профилактике правонарушений среди подростков. Данному направлению деятельности в ОВД всегда уделялось особое внимание.

На снимке: инспектор по делам несовершеннолетних УВД г. Ташкента лейтенант К. Эгамов беседует с представителями общественности. 1982 год.



ЛАҲЗАЛАРДА ЎТГАН САКСОН ЙИЛ

Кумуш қишининг ўртаси бўлишига қарамай, табиатнинг илиқ меҳри баҳор ҳавосини эслатади. Кўп қаватли уйлар орасидаги мўжазгина ўйингоҳда қиқирлашиб ўйнаётган кичкитойлар уларни жимгина кузатиб ўтирган нуронийга энди эътибор беришди. Югуриб келиб бир-бир салом бергач, яна ўйинлари томон шошилишди...

Ички ишлар органлари фарийси, истеъфодаги генерал-майор Ражаб Қодировни маҳаллада ёшу қари бирдек ҳурмат қилади. Оиласида номи ана шундай эҳтиром билан тилга олингани боис ҳам, кичкитойлар нуроний отахонни кўриши билан югуриб келиб, салом беришга ошиқадилар.

Қодир ака билан Мисал опа хонадонида дунёга келган Ражаб илмга чанқоқ, қатъиятли ва кучли бўлиб улғайди.

Йигирма уч ёшида Россиянинг Ростов вилояти ИИБга қарашли ахлоқ тузатиш колониясида ишлаб чиқариш ва техника бўлими мухандиси лавозимида, кейинчалик Москвада, собиқ Иттироқ ИИВ олий мактабида таълим олди.

Ўн беш йилдан ортиқ она Ватандан олисда хизмат қилди. Ички ишлар органлари соҳасида турли лавозимларда фаолият юритиб, катта тажриба тўплаган офицер истиқлоннинг дастлабки йилларида Ўзбекистонга қайтиб, ИИВ Ахлоқ тузатиш ишлари бошқармаси тергов ҳибсоналари ва турма бўлими бошлиғи этиб тайинланди. Унинг бой тажрибаси бу соҳани тартибга солиша кўл келди.

Доимо эл ардоғида, раҳбарият эътирофида бўлган Ражаб

Қодиров Ички ишлар вазирининг ўринbosари – Жазони ижро этиш бош бошқармаси бошлиғи лавозимида тайинлангач, зимирадаги масъулият янада ортди. Энди мамлакатдаги барча жазони ижро этиш муассасалари, тергов ҳибсоналари учун, ҳаёт йўлларида қоқилган шахсларни тарбиялаш учун жавобгар эди. Аммо Ражаб Қодиров бундай масъулият қаршисида тараффудланиб қоладиган раҳбар эмасди.

Генерал-майор Ражаб Қодиров хизмат фаолияти давомида жуда кўп шогирдлар етиштириди. Улар ҳар доим устозини йўқлаб, байрамларда ўйида меҳмон бўлиб, ҳол-аҳвол сўрашади.

...Кеч кириб ҳавонинг салқини юзни чимчилай бошлагандা, майдончада ўйнаб юрган болаларни ота-оналари чақириб олди. Уларни томоша қилиб ўтириб, саксон йиллик умрини кўз олдидан ўтказган Ражаб Қодиров ҳам аста ўрнидан туриб, уйи томон юрди. Эртага барвақт ишга бориши керак. Ахир, у айни пайтда ИИВ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаменти Ишлаб чиқаришни ташкил этиш бошқармасида етакчи эксперт бўлиб фаолият кўрсатмоқда. Тажрибаси ёшларга керак эканини, соҳага фойдаси тегаётганини ҳис этиб, яратганга шукроналар айтди.

Истеъфодаги генерал-майор Ражаб Қодиров жорий йилнинг 8 февраляда саксон ёшни қаршилайди. Лавҳамиз қаҳрамонини табаррук ёши билан қутлаб, унга доимо шогирдлари, яқинлари ардоғида бўлишини тилаймиз.

Иномжон РАҲИМХЎЖАЕВ,
капитан.

ЎЗИМИЗНИНГ АББОС АКА

Бугун биз Ички ишлар вазирлиги марказий аппаратида чорак аср мобайнида алоқа воситаларини таъмирлаш ишига муносиб ҳисса қўшган моҳир уста, касбига садоқат ва фидойилик билан ёндашган, ҳалол меҳнати билан жамоада, ўғит ва насиҳатлари билан шогирдлари орасида ҳурмат ва эътибор топган инсон, фахрий Абдулхапас Қурбонов ҳақида ҳикоя қилмоқчимиз.

Асли исми Абдулхапас бўлса-да, лекин у кишини ҳамма «Аббос ака» деб танийди. А. Қурбонов 1955 йилда Қирғизистон Республикасининг йўзин шаҳрида туғилган. Турдиохун ака оиласида 10 фарзанд бўлиб, Абдулхапас уларнинг тўртингчиси эди. Оналари Хосиятхон ая шаҳардаги тикувчилик цехида ишларди. Улар фарзандларини ўқитишига ва бирор касб әгаси бўлишига интиларди.

Қарангки, бугун ўзининг 70 ёшини нишонлаш арафасида турган Абдулхапас ака «Мен болалигимдан деворда осилиб, кўшиқ айтиётган ра-

чиқмасди. Отам очганимни сезмади. У ёқ-бу ёғини бураб, станциядан бўлса керак, деб ишига шўнғиб кетди.

Шу касбга қизиққанидан 2-Тошкент индустрисал-педагогика техникумини тугатиб, Ўш вилоятининг Аравон туманида Қишлоқ касб-техника билим юртида ўқувчиларга дарс берди.

1982 йилда А. Қурбонов пойтахтга келди. ИИВ Алоқа бўлимида қарашли Алоқа ва махсус техника воситаларини таъмирлаш устахонасида 4-разрядли механик бўлиб ишга кирди, 6 йил шу ерда бошлиқ бўлди. 2006 йилдан эса «ЖАР»



диога ҳайрат билан боқардим. Ичидан чиқаётган одамларнинг гаплари, айниқса, эртак айтилганида ҳайвонларнинг овозлари мени буткул ўзига ром этарди. Бу кутичанинг ичидан нима бор экан, дердим», – дейди кулиб болалик даврларини эслаганча.

– Сал катта бўлгач бу қизиқишиларим радионинг ичини очишига унади. Шартта очдим. Оппоқ симлар, ялтироқ алюминий бўлаклари ва бошқа турли хил жисмлар янайм дикқатимни тортди. Қизиги, кейин бўлди. Ёпганимда радио ишламай қолди. Қўрқдим. Тамом, энди отам роса койиса керак. Отамга нима дейман, деб уни қайта очиб-ёпдим. Энди у гапиради-ю, лекин овоз тиник

спорт-соғломлаштириш мажмуасида фаолиятини давом эттириб, 2015 йилда пенсияга чиқди.

Абдулхапас ака ўзига касб сирларини ўргатган марҳум устозларини тез-тез эслаб турди.

Дарҳақиқат, соҳада узоқ йиллар фидокорона ва самарали хизмат қилиб обрў-эътибор билан пенсияга чиқсан бундай фидойи фахрийлардан ёшларимиз ўз касбига меҳр қўйиш, доимо ўқиб-ўрганиш, интилиш ва изланиш каби фазилатларни ҳамда устоз ва мураббийларга доимо ҳурмат-эътиборда бўлишини ўрганса арзиди.

Шуҳрат РЎЗИЕВ,
ӯз мухбиримиз.

ЛУЧШИЕ ИЗ ЛУЧШИХ

В подразделениях органов внутренних дел проходят отборочные этапы смотра-конкурса «Самоотверженная сотрудница». Участницы демонстрируют профессиональные знания, физическую

подготовку, навыки владения огнестрельным оружием. Лучшие из лучших получат право выступить на республиканском этапе, который будет проходить в преддверии Международного женского дня.



Центральный аппарат МВД Республики Узбекистан

1 место: начальник отдела маркетинга и подготовки тендерных торгов Управления капитального строительства и ремонта Департамента финансового и материально-технического снабжения МВД майор Ирина Якубова.

2 место: библиограф Информационно-ресурсного центра Института повышения квалификации МВД рядовая Мухайё Эгамкулова.

3 место: старший инспектор Управления пробации Департамента общественной безопасности МВД капитан Рухсора Хамидова.



Андижанская область

1 место: сотрудница МООН старший сержант Дурдонахон Кодирова.

2 место: старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Андижанского района майор Ситора Маматякубова.

3 место: сотрудникница отдела Миграции и оформления гражданства ОВД Шахриханского района рядовая Диляфузра Олимова.



Сырдарьинская область

1 место: сотрудница ООП СОБ ОВД Сырдарьинского района младший сержант Шодияхон Хамраева.

2 место: сотрудница ОВД Гулистанского района младший сержант Барно Каримова.

3 место: сотрудница ОВД города Гулистана лейтенант Махлиё Турсуналиева.



Сурхандарьинская область

1 место: дознаватель ОВД № 1 ОВД Жаркурганского района капитан Махбуба Пулатова.

2 место: старший инспектор по вопросам женщин ОПП СОБ ОВД Термезского района капитан Сайёра Мухамадиева.

3 место: старший инспектор Центра правовой статистики и оперативно-учетной информации УВД Сурхандарьинской области рядовая Мунаввар Орзикулова.



Самаркандская область

1 место: инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД № 9 УКД ОВД города Самарканда капитан Вазира Бердимуродова.

2 место: инспектор по вопросам женщин ОПП ОВД № 3 УКД ОВД города Самарканда лейтенант Покиза Холикулова.

3 место: старший контролер изолятора временного содержания УООП СОБ УВД Самаркандской области рядовая Генриетта Беккер.

NAVOIY MEROSI – MILLAT XAZINASI

Buyuk shoir va mutafakkir, atoqli davlat va jamoat arbobi Alisher Navoiyning beba ho ijodiy-ilmiy merosi nafaqat xalqimiz, balki jahon adabiyoti tarixida, milliy madaniyatimiz va adabiy-estetik tafakkurimiz rivojida alohida o'rinn tutadi. Ulug' shoir o'zining she'riy va nasriy asarlarida yuksak umuminsoniy g'oyalarni, ona tilimizning beqiyos so'z boyligi va jozibasi, latofati bilan namoyon etib, millionlab kitobxonlar qalbidan joy egalladi.

Alisher Navoiy ikki tilda mu-kammal ijod qilib, turkiy tilda «Navoiy», forsiyda esa «Foni» ta-xallusini qo'llagan. Uning adabiy va ilmiy merosini 4 fasla bo'lish mumkin: devonlari, dostonlari, forsiy tildagi she'riy merosi hamda ilmiy-filologik, nasriy va tarixiy asarlari.

Navoiyning o'zbek tilida yaratgan she'riy merosi asosan «Xazoyin ul-maoniy» devoniga jamlangan. Asar to'rt qismidan iborat. 1472–1476-yillarda birinchi devoni «Badoye' ul-bidoya» («Badiylik ibtidosi»)ni shoh amri va istagi bilan o'zi kitob qiladi. Buyuk shoirning muhabbat va bu bilan bog'liq tug'yonlari, xussan, g'azallari uning yigitlik davrida yozilgan. Bunga uning «Ilk devoni»ga kiritilgan, xalq orasida «Qaro ko'zum», «Kelmadi» («Munojot») nomlari bilan mashhur bo'lgan va kuylanadigan g'azallari misol bo'la oladi. Uning ishq bilan bog'liq tasvirlari rang-barang va boy bo'lib, biz unda inson hayoti va holatining cheksiz ko'p qirralarini – shodlikni ham, xafachilikni ham, takrorlanmaydigan lahzalarni ham, har kun, har soatda yuz beruvchi ko'ngilsizliklarni ham ko'ramiz.

Alisher Navoiy ijodining shoh asari «Xamsa» besh dostondan iborat. Bular «Hayrat ul-abror» («Yaxshilar hayrati»), «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» («Yetti sayyora»), «Saddi Iskandariy» («Iskandar devori») dostonlaridir. Fors adabiyotidagi xamsachilikka javob sifatida o'zbek tilida birinchi marotaba yaratilgan Alisher Navoiy «Xamsa»si bu tilning cheksiz imkoniyatlarini amalda isbot etdi. 52 ming misradan iborat bu beshlik XV asr islam tafakkurining borliq va tabiat, inson va jamiyat, axloq va kamolot haqidagi o'ziga xos qomusi edi.

Alisher Navoiyning 3598 bayt dan iborat so'nggi dostoni «Lison ut-tayr» 1498–1499-yillarda yaratilgan. Mazkur asar bolaligida sevib o'qigani – Farididdin Attorning «Mantiq ut-tayr» («Qushlar

tili») dostoniga javob tarzida, shoirning o'z ta'biri bilan aytganda, «tarjima rasmi bila» yuzaga keltirgan she'riy mo'jizasi edi. Dostondagi bosh g'oya, bosh muammo tasavvufdag'i imon, e'tiqod va ma'naviyat masalalaridir.

Alisher Navoiy o'zining forsiy qasidalaridan alohida to'plamlar ham tuzgan bo'lib, ularning biri «Sittai zaruriya» («Olti zarurat»), ikkinchisi «Fusuli arbaa» («To'rt fasl») deb ataladi. «Sittai zaruriya» to'plamiga 6 qasida kiritilgan bo'lib, ularni Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Anvari, Haqoniy, Solmon Sovajiy va boshqa qasidanavislardan sirda yaratgan. Uning «Fasuli arbaa» to'plamiga 4 qasidasi kiri-



adabiyot masalalariga bag'ishlangan. Shu ma'noda «Majolis un-nafois» tazkirasini yaratish bilan o'z davri adabiyotiga, uning ijodkorlariga o'ziga xos haykal o'rnatib, unda o'zbek va forsiy tillarda ijod qilgan 359 shoirning hayoti va yozgan asarlari haqida noyob ma'lumotlar berilganini ko'rish mumkin. Uning «Xamsat ul-mutahayyirin», «Holoti Sayid Hasan Ardasheri», «Holoti Pahlavon Muhammad» asarlari

ALISHER NAVOIY HIKMATLARI

- Tilga ixtiyorsiz – elga e'tiborsiz.
- Odam – tili bilan boshqa hayvonlardan imtiyozlidir. Uning tili orqali boshqa odamlardan afzalligi bilinadi. Til – shuncha sharifi bilan nutqning qurolidir. Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa – tilning ofatidir.
- Kimki, yolg'on so'zni birovga to'nkagay, o'z qora yuzini yog'ga bulaydi. Ozgina yolg'on ham ulug' gunohdir; ozgina zahar ham halok qiluvchidir.
- Odami ersang demagil odami, Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami.
- Onalar oyog'i ostidadur Ravzayi jannatu jinon bog'i. Ravza bog'i visolin istar esang, Bo'l onaning oyog'in tuprog'i.
- Yigitlikda yig' ilmning maxzani, Qarilik chog'i sarf qilg'il ani.

tilgan bo'lib, ularda yilning 4 fasli – bahor, yoz, kuz va qishning o'ziga xos go'zalligi zavq bilan tasvirlangan va to'rtalovi ham zamon podshohi – Sulton Husayn Boyqaroni podshoh va shaxs, yaxshi do'st va yaxshi inson sifatida vasf etishga bag'ishlangan. O'z davrining ulug' olimi, mutafakkiri bo'lgan Alisher Navoiyning ilmiy tadqiqotlari va izlanishlarining katta qismi, tabiiyki, til va

«Majolis un-nafois»ning davomiday bo'lib, bu davr adabiyoti, fani va madaniyatining yirik namoyandalari hayotini o'rganishda eng qimmatli manbalardir. Shoirning katta adabiy va tarixiy ahamiyatiga ega «Munshaot» asari uning turkiy tilda o'z zamondoshlari – podshohlar va shahzodalar, ilm va adabiyot ahllari bilan olib borgan yozishmalari majmuidan iborat.

«Vaqfiya» asari ham, bir qarashda, shoir va buyuk davlat arbobining o'zi qurban imoratlariga vaqfi, ya'ni rasmiy hujjatidek ko'rinsa ham, aslida unda Sulton Husayn Boyqaro davri davlat tizimi, Alisher Navoiyning bu davlatni boshqarishdagi o'rni, uning tarjimayi holi, ijtimoiy-siyosiy va axloqiy qarashlari katta bilimdonlik va aniqlik bilan yoritilgan. Shuning uchun ham navoiyshunoslikda bu asarga Alisher Navoiy nasrinining ajoyib namunasi sifatida qaraladi. **«Mezon ul-avzon»** («Vaznlar o'Ichovi») va **«Muhokamat ul-lug'atayn»** («Ikki til muhokamasasi») asarlari boshqa ilmiy tadqiqotlaridan farqli o'laroq, umumturkiy ahamiyatga ega va boshqa turkiy xalqlarning she'riyati va tillarini o'rganishga ham xizmat qilib kelmoqda.

Alisher Navoiy hayotining oxirlarida nasriy asari – **«Mahbub ul-qulub»**ni yozdi. Unda muallif o'zi yashagan davrdagi har bir tabqa hayoti, axloqi va vazifalari haqida suhbat yuritadi. Asarda Alisher Navoiyning inson axloqiga va tarbiyasiga doir eng noyob pand va nasihatlari xalq maqollari va hikmatli so'zleri shaklida bayon qilingan. Ko'p o'rinda shoir o'z fikrlarini bayt, qit'a, masnaviy, ruboib shaklida ifodalashi asarga rang-baranglik bag'ishlagan.

Alisher Navoiy o'zidan boy she'riy, nasriy va ilmiy meros qoldirgan bo'lib, bu merosning hajmi 100 ming baytdan iboradir. Bu boy meros bilan u o'zbek adabiyotini jahon yuksakligiga ko'tardi va o'zbek adabiy tiliga asos soldi.

O'zbek adabiyotida lirik janrlar va dostonchilikning eng yuqori taraqqiyoti Alisher Navoiy nomi bilan bog'liqdir. Uning asarlari rus, qozoq, qoraqalpoq, turk, tatar, nemis, fransuz, golland va yana boshqa o'nlab xalqlar tillariga tarjima bo'lgan va qayta-qayta nashr etilgan.

Shoir asarlarda ilgari surilgan xalqparvarlik, mardlik, jasurlik, mehnatsevarlik, millatlararo tenglik, bag'rikenglik singari o'limas g'oyalari aslo o'z qimmatini yo'qotmaydi, bizlarni yangidan-yangi marralar, zafarlar sari chorlab turaveradi.

Adolat FAYZIYEVA tayyorladi.



Maqolani
qoraqalpoq tilida
o'qish uchun
QR-kodni skanner
qiling.

FAKHRIYLAR – FAXRIMIZ

ҲАМОН НИШОННИ АНИҚ УРАДИ

Бу воқеа 2002 йилнинг июнида Зафаробод туманинг Йўлдош Охунбобоев номли хўжалигида юз берганди. Тунда ғўза сувориб совуқсираган сувчи куни билан қизиб, ҳали тафти кетмаган асфальт йўлда ётиб мизгийди. Оқибатда уни машина босиб кетади.

Мазкур ҳолат бўйича туман ИИБ ходимлари суриштирув ишлари олиб боришади. Аммо орадан 20 кун ўтса ҳамки, кала-ванинг учи топилмайди. Бироқ Жиззах шаҳар ИИБ катта терговчиси, капитан Алим Яхшибаевнинг бой тажрибаси натижасида жиноят очилади.

Терговчи жиноятга оид хужжат ва фотосуратларни диққат билан ўрганиб чиқиб, воқеа жойига чиқсан тергов-тезкор гурухи аъзолари билан сұхбатлашганидан сўнг, сувчини трактор босиб кетган, деган холосага келди.

Тез орада Фориш туманидан ўз тракторида худудга ишлаш учун келган тиркамали трактор ҳайдовчиси гумон қилиниб қўлга олинди. У яшаш манзилига кетар чоғида эътиборсизлиги сабаб йўл устида ухлаб ётган сувчини босиб кетганигини тан олди. Зоро, эксперт-криминалистлар унга тегишли тиркама филдиреклари дискларидан топилган

қон зарралари сувчига тегишли эканлигини исботлагандilar.

Истеъфодаги подполковник Алим Яхшибаев ички ишлар орнларининг тергов тизимидағи 27 йиллик фаолияти давомида бу каби кўплаб жиноятларни фош этди, жиноятчиларга нисбатан жазо муқаррарлигини тъминлашга муносиб ҳисса қўшди.

Бахмал туманининг «Сарой» маҳалла фуқаролар йиғинида туғилган лавҳамиз қаҳрамони ички ишлар органларидағи хизмат фаолиятини 1991 йилда Жиззах шаҳар ИИБда терговчи вазифасида бошлади. Кейинроқ Зафаробод, Шароф Рашидов, Фаллаорол туманлари ИИБда катта терговчи, тергов бўлими бошлиғи лавозимларида самарали хизмат қилди.

Фаолияти давомида қатор шогирдлар тарбиялаб етиштириди. Улар ҳозирда хукуқ-тартиботни мустаҳкамлаш, қонунийликни таъминлаш йўлида ички ишлар идораларида турли лавозимларда хизмат қилишмоқда.



Алим Яхшибаев 2008 йилда подполковник унвонида пенсияга чиққанидан сўнг ҳам меҳнат қилишдан тўхтаб қолмади. Хусусан, адвокат сифатида одамлар корига яради. Айни вақтда эса «Айдаркўл-Арнасой кўллар тизими» масъулияти чекланган жамиятида юристлик қилаётir.

Фахриймизнинг катта ўғли Жиззах вилояти мажбурий ижро бюросида бўлим бошлиғи, кичиги фермер. Қизларидан бири ўқитувчи, бошқаси муҳандис.

Набиралари бир этак. Уларни эркалаб, дили ярайди. Алим Яхшибаев 1979 йилдан буён овчилик жамияти аъзоси, 70 ёшни қоралаб қолганига қарамай, ҳамон нишонни аниқ уради. Бўш пайтлари ўзи каби фахрийлар билан шахмат таҳтасида дона суради. Хуллас, ҳар кунининг қадрига етиб, завқини туйиб яшамоқда.

Алижон АБДУСАТТОРОВ,

ӯз мухбири.

Жиззах вилояти.

СОҲА ФИДОЙСИ

ТАЖРИБА ЎЗ СЎЗИНИ АЙТАДИ

... Тун пардасин ёйиб, ён-атроф қоронғилик билан чулғанган пайт. Кечки хизмат йўриқномасидан чиқсан сафдор Сирожиддин Бобоёров Қиброй туманидаги «Салар» қўргонига йўл олди. Худудга яқинлашаётганида эса, катта йўлда рўпарадан келаётган бир фуқаро негадир хизмат автомашинасига кўзи тушиши биланоқ ўзини панага олди. Бундан шуб-

ҳалангтан осойишталик посбони дархол машинани тўхтатиб, унинг олдига борди. Дараҳтлар оралаб қочишига шайланаётган йигит ходимни кўриб бу ниятидан қайтди.

– Нега мендан яшириняпсиз?
– Йўқ... Нега яширинаман...

Саволларига узуқ-юлуқ тарзда жавоб берган бу кимсанинг шахсини аниқлаш мақсадида планшет орқали текшириб кўрилди.



Қарангки, йигитнинг безовталиги бежиз эмас экан. У қидирудаги шахс бўлиб чиқди. Сафдор Сирожиддин Бобоёров муқаддам фирибгарлик жиноятини содир этиб, тергов органларидан яшириниб юрган фуқарони тезда туман ИИБга олиб келди.

– Хизмат фаолиятимда бундай воқеалар кўплаб учраб туради, – дейди Тошкент вилояти ИИБ 1-минтақавий худуди патрульпост хизмати инспектори, сафдор С.Бобоёров. – Жумладан, ўтган йилнинг ўзида бошқа соҳавий хизмат ходимлари билан ҳамкорликда 50 нафардан ортиқ қидирудаги шахсларни ушлашга, 2 нафар бедарак йўқолган шахсни топишга муваффақ бўлдим.

Сирожиддин ҳарбий хизматдан қайтгач, хизмат фаолиятини вилоят ИИБ ППХ ва ЖТСБ ППХ батальонида бошлади. Устози, ҳозирда истеъфодаги лейтенант Равшан Тўраевдан соҳавий хизмат сирларини ўрганди, малакасини бойитди, тажриба тўплади. Мана, шунга ҳам 17 йил бўлиби.

– Хизмат тақозоси билан турли характердаги, турфа хил одамларга дуч келиб, улар билан фикр

алмашаман, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Бу касбий тажрибамни янада бойитиб, содир этилиши мумкин бўлган қонунбузарликларнинг олдини олишда муҳим ўрин тутади.

Отаси Эргаш Бобоёров ва онаси Қайнар Қувонова Сирожиддин билан фахрланишади. Ҳар куни тонгда жигаргўшаси хизматга отланаркан, уни узундан-узок дуо қилиб, доимо эл-юрт осойишталиги йўлида камарбаста бўлишини ният қилишади.

Сирожиддиннинг турмуш ўртоғи Гавҳар ҳам Чирчиқ шахридаги оиласвий поликлиникаларнинг бирида ҳамшира бўлиб ишлайди. Улар бугунги кунда иккى ўғил ва бир қизни тарбиялаб, вояга етказишмоқда. Кенжа ўғил Муҳаммадсадиқ ота изидан бориб, келажакда ички ишлар органи ходими бўлмоқчи. С. Бобоёров эса ўзи эриша олмаган орзумидлари келгусида фарзандлари тимсолида ушалишига чин дилдан ишонади, уларни руҳлантиради, қўллаб-қувватлади.

Михли САФАРОВ,
ӯз мухбири.

Тошкент вилояти.

JARAYON

YO'L BELGILARI – YO'LCHI MAYOQLAR

Yo'lda harakatlanayotgan inson borki, harakat xavfsizligini ta'minlovchi yo'l belgilari yo'rig'iga bo'yusunishi shart. Aks holda, biror ko'ngilsiz hodisa ro'y berishi, hatto u ayanchli yakun topishi ham mumkin. Harakat xavfsizligini tartibga solib turuvchi yo'l belgilarini o'rnatish va yotiq chiziqlarni chizish bilan shug'ullanuvchi soha egalarining asosiy vazifasi yo'ichi mayoqlar butligini ta'minlashdan iborat.



xavfsizligini ta'minlash maqsadida tezlikni chekllovchi **300 dona** yo'l belgilari o'rnatildi. Svetoforlarning **121 tasi** rekonstruksiya qilindi, **40 tasi** yangitdan o'rnatildi. Transport va piyodalar oqimi, ular bilan bog'liq yo'l-transport hodisalarining tahlili asosida aholi gav-jum hududlardagi piyodalar o'tish joylarida ular tomonidan boshqariladigan 16 ta svetofor ishga tushirildi. Maktablarda **72 ta** va maktabgacha ta'lim tash-

Muxtor Ashrafiy nomli mahalla fuqarolar yig'inining bir guruh faollari «Xalq qabulxonasi»ga murojaat qilishib, Muxtor Ashrafiy ko'chasining 1-muyulishdan katta ko'cha-chiqishda svetofor yo'qligi bois hududda joylashgan korxona va tashkilotlarning transport vositalari qatnovida va fuqarolarning harakatnashida qiyinchiliklar yuzaga kelayotgani, ayniqsa, yo'l-transport hodisalarini so-dir bo'layotgani ularni jiddiy tashvishga solayotganini bildirishgan. Ushbu murojaat qisqa fursatda o'rganib chiqilib, ko'cha boshiga svetofor o'rnatilgach, fuqarolarning, xususan, bolajonlarning xavfsizligi ta'minlandi.



– Yo'l-transport hodisalarining ko'payib borayotganligiga, avvalambor, yo'l belgilari riyo qilmaslik va yo'l harakati qoidalarini mensimaslik sababdir, – deydi Toshkent shahar IBB YHXB huzuridagi Ekspluatatsiya-montaj boshqarmasi boshlig'i, mayor Muhiddin Nadjimov. – Shu bois boshqarma xodimlari oldiga zamon talablariga javob bera oladigan svetofor va yo'l belgilarini o'rnatish va yotiq chiziqlarni sifatlari tarzda chizish orqali haydovchi va piyodalarimizga qulaylik yaratish vazifasi qo'yilgan.

O'tgan yil davomida xodimlarimiz bilan 3000 ta yaroqsiz holga kelgan yo'l belgilarini yangiladik. Maktablarda ta'lim olayotgan bolajonlarimizning

kilotlarida **96 ta** yo'l harakati qoidalarini o'rgatish maydonchalarini tashkil etildi.

Olib borayotgan ishlamizning samarali bo'lishida fuqarolarimizdan kelib tu-shayotgan murojaatlarning ham alohida o'rni bor. Bevosita boshqarmamiz nazorati ostida bartaraf etilayotgan muammolardan tashqari, joylarda, ayniqsa, shahrimizning chekka hududlarida qandaydir kamchiliklar bo'lsa, jamoatchilik nazorati yoki aholing bevosita Xalq qabulonasi yoki IBBga murojaati orqali hal etilmoqda. Bu esa yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda alohida ahamiyatga ega.

Misol tariqasida aytadigan bo'lsak, Yashnobod tumani


Yaqinda ishlamayotgan svetoforlar, o'chib ketgan (noto'g'ri chizilgan) yo'l chiziqlari, to'silib qolgan (noto'g'ri o'rnatilgan) yo'l belgilari singari kamchiliklarni yanada tezkorlik bilan hal etish maqsadida Toshkent shahar IBB YHXB huzuridagi Ekspluatatsiya-montaj boshqarmasining (71) 294-29-82 dispatcherlik xizmatiga murojaat qilish tizimi yo'lgan qo'yildi. Murojaatlar belgilangan tartibda o'rganiladi va qisqa fursatda kamchiliklar bartaraf etiladi. Ushbu amaliyat kel-gusida yurtimizning barcha hududlarida joriy etilishi rejalashtirilgan.

Sarvar SOBIROV,
o'z muxbirimiz.
Toshkent shahri.

XIZMATLARDA

«ISHONCH MARKAZI»GA ISHONCH ORTMOQDA

Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash masalasiga ustuvor vazifa si-fatida qaralmoqda. Bundan uch yil muqaddam IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Huquqbazarliklar profilaktikasi xizmati tarkibida «1259» va «1286» qisqa raqamli «Ishonch markazi» faoliyatining yo'liga qo'yilgani ham buning yaqqol tasdig'idir.



Kecha-kunduz, uzlusiz faoliyat yuritib kelayotgan markaz tomonidan oilaviy zo'ravonlik holatlari bo'yicha qilingan murojaatlar o'rganilib, huquqiy choralar ko'riliishi tashkil qilinmoqda. Shu bilan birga, huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmalar xodimlarining protsessual-huquqiy yordam va maslahat so'rab

66 tasi qaynona-kelin o'rta-sida, **12 tasi** qaynota-kuyov o'rta-sida hamda **42 tasi** qo'ni-qo'shni va **4969 tasi** boshqa fuqarolar o'rta-sidagi zo'ravonlik haqidagi xabarlar tashkil qiladi.

Hozirgi paytda «Ishonch markazi»ga murojaat qilgan



yo'llagan xabarlarini qabul qilish, ko'rib chiqilishini tashkil etish va huquqiy maslahat berish ishlari ham amalga oshirilmoqda.

O'tgan yili markaza kelib tushgan **6027 ta** murojaatning **548 tasi** zo'ravonlikdan jabrlanganlik, **390 tasi** er-xotin o'rta-sida,

fuqarolarning oilaviy ahvoli, bandlik masalasi, ijtimoiy-maishiy muammolari to'liq o'rganilib, bartaraf qiliш choralar ko'rilmoxda. Bu jarayonda huquqbazarliklar profilaktikasini bevosita amalga oshiruvchi hamda unda ishtiroy etuvchi organ va muassasalar, fuqarolik jamiyatni institutlari bilan yaqin hamkorlikda ish olib borilayapti.

Ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, oilaviy zo'ravonliklarning oldini olishga munosib hissa qo'shish – bosh maqsadimiz. Tinch va ahil oilda esa jinoyat sodir bo'lmaydi. Ana shunda oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishishimiz shubhasiz.

Nazokat TOJIYEVA,
podpolkovnik.

Joyi-da zudlik bilan o'rganilib, 317 na-far ayolga himoya orde-ri berildi. 41 na-far fuqaroning oilasi mahalla faol-lari yordamida yarashtirildi. Xuddi shuningdek, 287 na-far shaxsga ma'muriy chora ko'rilgan bo'lsa, 52 na-far shaxsga nis-batan jinoyat ishi qo'zg'atildi.



QO'SHSAHIFADA -



XOTIN-QIZLAR HUQUQLARI HIMOYADA

Muborak tumanida xotin-qizlar o'rtaida jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan, oilaviy muammolar, tazyiq va zo'ravonlikka duch kelayotgan ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash borasida diqqatga molik ishlar olib borilmoqda.

– Mahalla fuqarolar yig'inlari va mutasaddi tashkilotlar vakillari bilan hamkorlikda xonadonma-xonadon yurish davomida 530 ta oiladagi 545 nafar xotin-qizning yashash sharoitlari, muammolar o'rganildi, – deydi tuman IIB JXX HPB xotin-qizlar masa-

lari bo'yicha katta inspektor, kapitan Hilola Kamolova. – Bu jarayonda 390 ta muammo aniqlanib, boquvchisini yo'qotgan 15 nafar ayolga subsidiya asosida tikuv mashnasi olishga ko'maklashildi.

Profilaktik hisobda turgan 121 nafar xotin-qizdan

35 nafari ishga joylashtirildi, ko'makka muhtoj 33 nafariga moddiy yordam ko'rsatildi, 15 nafari davolanishiga ko'maklashildi. Bundan tashqari, 13 nafariga tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishda amaliy yordam ko'rsatildi, 3 nafar qiz ta'lim muassasalariga qaytarilib, og'ir ahvolda qolgan 2 nafar xotin-qiz reabilitatsiya markaziga joylashtirildi. Nizolashayotgan oilalarning 90 tasi yarashtirildi, 220 ta aliment masalasidagi nizolar bartaraf etildi, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan 302 nafar xotin-qizga himoya orderi rasmiylashtirildi.

BEMINNAT KO'MAKCHILAR

Viloyat ichki ishlar organlari kinologiya xizmatida 47 ta xizmat iti mavjud bo'lib, ular asosan ovcharka, labrador va rus spaner zotlariga mansub. Beminnat ko'makchilarimizning parvarishiga alohida e'tibor qaratiladi. Har bir it uch oyda mutaxassis tekshiruvidan o'tkaziladi.

O'tgan yili viloyat miqyosida kinologlar xizmat itlari bilan birga 440 marta voqeja joylariga chiqib, 226 ta jinoyatni fosh qilishda bevosita ishtirok etishdi. Qotillik, bosqinchilik, giyohvandlik moddalari savdosi kabilar shular jumlasidan.

Viloyat ichki ishlar organlari kinolog xodimlari turli tanlov va musobaqalarda muvaf-

faqiyatli qatnishib kelishyapti. Misol uchun, o'tgan yil oktabr oyida kinolog xodimlar o'rta-sida o'tkazilgan respublika miqyosidagi ko'pkurash musobaqasida viloyat IIB JXX JTSB Kinologiya bo'limmasi instruktor-kinologi, safdar Sohib Hayitov «Red» laqabli xizmat iti bilan birinchi o'rinni qo'iga kiritdi.



KAMBAG'ALLIKDAN FAROVONLIK SARI

O'tgan yili ilg'or tajribalar asosida viloyatning barcha tuman va shahar 3-sektorlarida yashovchi ishsiz 55 ming nafardan ziyod aholining bandligini ta'minlash choralarini ko'rildi. Shundan «Uchi tajribasi» bo'yicha 12667 nafar, «Zarbdor tajribasi» bo'yicha 22 ta drayver loyihani ishga tushirish orqali 2695 nafar fuqaroning bandligi ta'minlandi. 39,4 milliard so'mlik 9 ta maqsadli loyiha ishga tushirilishi esa 784 nafar kishining ishli bo'lishiga imkon yaratdi. Misol uchun, Koson tumanidagi «Obod» mahallasida umumiyligi 3,7 milliard so'mlik Afrika laqqa balig'i yetishtirish korxonasi ish boshlashi natijasida 20 nafar fuqaro muqim ish o'rni ega bo'ldi. Xuddi shunday, Ko'kdala tumani «Do'stlik» mahallasida amalga oshirilgan 5 milliard so'mlik loyiha 50 ta ish o'rni yaratdi.



«Kambag'allikdan farovonlik sari» dasturi bo'yicha 3-sektor rahbarlari hamda ularning o'rinosarlariga eng kambag'al deb topilgan 5 tadan, jami 370 ta oila biriktirildi. Ayni vaqtida maz-kur oilalarning kambag'allika tushib qolish sabablarini aniqlash maqsadida ularغا biriktirilgan rahbarlarning shaxsan o'zları borib o'rganib, tegishli yordamlar ko'rsatib kelinmoqda.

QASHQADARYO VILOYATI

ZIYRAK NIGOHIDAN CHETDA QOLMADI

Safdar Akbar Ergashevning ichki ishlar organida xizmat qilayotganiga o'n yildan oshdi. Otasi, iste'fodagi mayor Asqar Ergashevning kasbiiga havasmand ulg'aygan Akbar ilk xizmat faoliyatini 2014-yilda viloyat IIB PPX va JTSB patrul-post xizmati batalyonida safdar lavozimidan boshlagan.

– Xizmatga endi kirishgan paytimda, ochig'i, biroz qynalghanman, – deydi u. – Lekin birinchi ustozim – otam, shuningdek, murabbiylarim, tajribali, safdoshlarimning qo'llab-quvvatlashi barcha qiyinchiliklarni yengib o'tishimda, kasb sirlarini egallashimda juda asqatdi.

O'tgan yillar mobaynida katta tajriba to'plagan safdar Akbar Ergashev o'zining ziyrakligi tufayli ko'plab huquqbazarliklarning oldini oldi, jinoyatlarga barham berdi. Joriy yilning 18-yanvar kuni Qarshi shahrida tungi xizmatni o'tash davomida fuqaroning shubhali harakatlari ham uning tiyran nigohidan chetda qolmadi. Fuqaroning shaxsiga aniqlik kiritish uchun planchet orqali tekshirib ko'rganida esa, u o'g'rilik va voyaga yetmagan shaxsni jinoyatga jalb qilish kabi qonunbuzarliklarni sodir etib, tergov organlaridan yashirinib yurgani ma'lum bo'ldi.

Qidiruvdag'i shaxs ichki ishlar organiga keltirilib, tergov ixtiyoriga topshirildi. Holat yuzasidan hozirda tergov harakatlari olib borilmoqda.



QOIDAGA HAMMA RIOYA ETISHI LOZIM



Hozirgi paytda Qarshi tumanida 2 ta xorijiy, 1 ta qo'shma korxona faoliyat ko'rsatmoqda. Chet ellik mutaxassislarning mamlakatimizga kirish-chiqish, yashash borasi-dagi holatlar yuzasidan o'tgan yilda o'tkazilgan monitoringlar davomida 36 nafar xorijlik fuqaro amaldagi tartib-qoida-larga riosa etmasdan yashayotgani aniqlandi. Ularga nisbatan tegishli jarima chorasi qo'llanib, kelgusidagi oqibatlari to'g'risida rasman ogohlantirildi. Qolaversa, chet ellik mehmonlarni qonuniy qayddan o'tkazmasdan, uyida yashashiga ruxsat bergani uchun 6 nafar hamyurtimizga ham jarima jazosi qo'llanildi.

– Mahallalarda, tashkilotlar va ta'lim muassasalarida bo'lib, tez-tez profilaktik suhbatlar, uchrashuvlar o'tkazyapmiz, – deydi tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish bo'linmasi boshlig'i, kapitan Begzod Narziyev. – Bu tadbirda fuqarolar mavjud tartib-qoidalari yana bir bor tushuntirilib, ularga qat'iy amal qilish zarurligi uqtirilmoqda. Chunki fuqarolik hujjatidan avaylab-asrab foydalanish, mavjud qoidalarga riosa etish – har birimizning burchimiz. Bu borada har kim zimmasidagi huquq va majburiyatni his qilishi muhimdir.

Bundan tashqari, xorijlik fuqarolar va mahalliy ahollining mavjud tartib-qoidalarga riosa etilishini ta'minlash maqsadida bo'linma xodimlari

tomonidan tez-tez «Spitamen», «Pasport», «Viza» kabi profilaktik tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

HAMYURTULARIMIZ NOQO-NUNIY MIGRATSİYA TUFAYLI QIYIN HOLATLARGA TUSHIB QOLISHINING OLDINI OLISH MAQSADIDA YASHASH JOYIDAN UZOQ MUDDATGA KETGAN FUQAROLARNING OILA A'ZOLARI, YAQINLARI BILAN SUHBATLAR O'TKAZLIB, VATANGA QAYTARISH CHORALARKI KO'RILMOQDA.

Profilaktik tadbirlarni samarali tashkil etish, qolaversa, aholiga turli xizmatlar ko'rsatishda bo'linma inspektori, katta serjant Sherzod Tursunov, pasportchi, katta serjant Adham Avliyoqulov hamkasblariga o'rnak bo'limoqda.

Yakkabog' tumani IIB Ekspert-kriminalistika guruhi katta eksperti, mayor Nizom Musayev o'tgan yili tergov-tezkor guruhi tarkibida 171 marotaba voqeа joyiga chiqdi. Hodisa joylarini ko'zdan kechirib, jinoyatlarga aloqador 178 ta qo'l-barmoq izlari va boshqa ashyoviy dalillarni oldi. Natijada bir nechta jinoyatlar «issiq izida» fosh etildi.

IGNA BILAN QU DUQ QAZIB...



– Davr shiddat bilan rivojanmoqda. Zamон bilan hamnafas bo'imasang, jinoyatchilarning kirdikorlarini fosh etish mushkul, – deydi mayor Nizom Musayev. – Shu bois biz, ekspert-kriminalistika sohasi xodimlari doimiy ravishda bilim va malakamizni oshirib boryapmiz.

Faoliyati igna bilan quduq qazishga mengzaladigan ekspert-kriminalistika xizmati xo'dimlari zamonaviy kriminalistik texnikalar, kompyuter jamlanmalari va boshqa asbob-uskunalar bilan ta'minlanib, moddiy-texnik bazasi boyitilgani jinoyatlarning tezkorlikda ochilishida qo'l kelmoqda.

Qo'shsahifa materiallarini o'z muxbirimiz Sodiq RAHIMOV tayyorladi.



www.postda.uz



t.me/postdaramsiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz


Урок духовности и просвещения

НАСЛЕДИЕ НАВОИ – СОКРОВИЩЕ НАЦИИ



Он с детства выделялся среди сверстников, проявляя талант к языку и литературе, истории и философии, математике и астрономии. Тяга к знаниям и удивительная память позволили получить блестящее образование. Особое влияние на Алишера Навои оказало его окружение – выдающиеся мастера слова Абдурахман Джами и Лутфи.

Навои владел тюркским, персидским языками, на которых создавал произведения. Однако главной целью для него было возвышение родного языка, что нашло отражение в лингвистическом трактате «Суждение о двух языках». Он считал, что тюркский язык обладает всеми возможностями для выражения сложнейших философских и эстетических идей.

Алишер Навои оставил богатое литературное наследие. Главным достижением автора стала «Хамса» («Пятерица») – уникальный цикл из пяти поэм, каждая из которых посвящена различным аспектам человеческой жизни и морали. Написанные в жанре «маснави», они затрагивают темы любви, справедливости, самопожертвования, духовного роста.

«Смятение праведных» – философско-дидактическая поэма, где Навои размышляет о добродетели и предназначении человека, о роли справедливости, милосердия и нравственных идеалах.

«Фархад и Ширин» посвящена истории любви каменотеса Фархада и прекрасной Ширин. Произведение воспевает чувство самопожертвования, стойкость перед трудностями.

В поэме **«Лейли и Меджнун»** через судьбу главных героев поэт раскрывает тему любви, которая превосходит границы материального мира и становится высшей формой духовного единства.

«Семь планет» – в основе произведения лежит идея «путешествия» к познанию истины. Через семь повествований героев автор передает богатство человеческого опыта и разнообразие мировоззрений.

«Стена Искандара» – заключительная поэма цикла представ-

9 февраля 1441 года в Герате родился Алишер Навои – гениальный поэт, мыслитель и государственный деятель, заложивший основы узбекской литературы и навсегда изменивший культурный ландшафт Центральной Азии.



ляет собой философский трактат о смысле жизни, стремлении к нравственному самосовершенствованию.

«Хамса» является не только литературным шедевром, но и бесценным культурным памятником, продолжающим восхищать читателей по всему миру. Произведение стало первым трудом подобного масштаба, написанным на тюркском языке.

Огромный интерес вызывает собрание стихов («диван») Навои «Сокровища мыслей», состоящее из четырех книг: «Причуды детства», «Редкие дары юности», «Диковины средних лет», «Поучительные заветы старости». В произведениях воспеваются любовь, дружба, мудрость.

Лирика Навои пронизана образами природы, чистыми чувствами. Его газели отличаются сочетанием тонкого эстетизма,

глубоких философских идей и эмоциональной насыщенности. Они – отражение внутреннего мира поэта.

**Пусть сто тысяч звезд-
жемчужин сыплет с высей
небосвод –
Туча бедствий неизбежно
град печали принесет.
Знает рок одну заботу,
низвергая этот град, –
Обломать побеги жизни,
саду тела слать извод.
Каждый, кто обижен долей,
знает злобный рок небес,
Но судьбу, старуху злую,
благодетелем зовет!**

Произведения изобилуют метафорами, символами и аллегориями, что делает их многослойными. Язык поэта богат, мелодичен, сочетает в себе простоту выражения с утонченностью мыслей.

Лирический герой Навои – Личность, с ее ошибками и успехами,

с устремлением к духовному совершенству.

**Общайся с тем, кто чист душой, и в помыслах хороши,
Желая добрых встреч, иди,
коль сам добро несешь.
С приятной речи день начни,
не вызывав в людях дрожь,
Любовь людей к тебе придет,
в ней радость обретешь.**

Перу Навои принадлежит ряд уникальных научных трудов по литературоведению, философии, языкоznанию, истории. Среди них трактаты «Весы размеров», «Собрание утонченных», «Возлюбленный сердец», «Избранные истории» и др.

Памяти своего духовного наставника и друга Абдурахмана Джами поэт посвятил книгу «Пятерица изумлений». В ней он раскрывает обстоятельства, способствовавшие знакомству и дружбе с Джами, описывает исторические события, происходившие в Хорасане во второй половине пятнадцатого века.

Алишер Навои не только занимался литературным творчеством, но и активно участвовал в жизни государства. Он трудился на высоких постах при дворе, принимал непосредственное участие в осуществлении реформ. Навои заботился о просвещении народа и поддерживал талантливых поэтов и художников. Его деятельность способствовала развитию науки и искусства.

Сегодня имя Алишера Навои носит город, театр в столице Узбекистана, университет, библиотеки. Его памятники украшают города во многих странах мира, а произведения продолжают вдохновлять новые поколения читателей. Навои – олицетворение таланта, мудрости, пример для тех, кто стремится к гармонии, совершенству, служению людям.

**Наргиза МАДАМИНОВА,
старший преподаватель
УзГУМЯ.**



KIBERTUZOQQA SODDA KISHILAR ILINADI

– deydi podpolkovnik Baxtiyor TOJIBOYEV

Bugun internet olamidagi jinoyatlar soni tobora ortib bor-moqda. Har kuni yangidan-yangi usullarda jinoyatlar sodir etilishi natijasida firibgarlar katta mablag'larni o'zlashtirib olishmoqda. Tahlillar, avvalo, fuqarolar kiberxavfsizlik sohasida yetarli bilimga ega emasligi bu turdag'i jinoyatlar ortishiga zamin yaratayotganini ko'rsatadi.

Namangan viloyati IIB TQX Kiberxavfsizlik bo'limi boshlig'i, podpolkovnik Baxtiyor Tojiboyev bilan suhabatimiz kiberma-konda sodir etilayotgan jinoyatlar, ularning turlari, kiberjino-yatchilikka qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida bo'ldi.

– Targ'ibot ishlari olib borila-yotganiga qaramay, jabrdiydar soni keskin ortmoqda. Buni nima bilan izohlash mumkin?

– Kiberjinoyatchilikning har qanday ko'rinishida firibgarlar tu-zog'iga sodda, ishonuvchan kishi-lar ilinmoqda. Guvohi bo'lyapmiz: fuqarolarning bank plastik kartasi-dagi mablag'lar yechib olinmoqda. Moliyaviy piramida, soxta treyding o'yinlari orqali ham ko'plab kishi-lar mablag'laridan ayrib qolyapti. Xuddi shunday, kimlargadir sun'-iy intellekt yordamida yaqinlari ovozini o'xhatib qo'ng'iroq qilib, falokatga uchragani, zudlik bilan plastik kartaga pul tashlashi ke-rakligini aytishyapti.

Jinoyatchilar yangidan-yangi dasturlar, ilovalar ishlab chiqib, shaxsnинг barcha ma'lumotlarini o'zlashtirib olishga urinmoqda-lar. Fuqarolar telefoniga virusli dasturlarni o'zi bilmagan holda yuklab olmoqda. Bu dasturlar esa shaxsga doir barcha ma'lumotlarni o'zlashtirib olish imkonini yaratadi.



Firibgarlar turli ko'rinishdagi jimjimador reklamalardan foy-dalanayotgani, mentalitetimizga xos qadriyatlarimiz orqali «hammasi halol» deya ishontirishga urinayotganlari ularning g'arazli niyatlari amalga oshishiga imkon bermoqda.

Misol uchun, yaqinda bo'limizga murojaat qilgan fuqaroning aytishicha, unga telefon qo'ng'iroq'i bo'lgan, rus tilida «Markaziy bank xodimiman», deya o'zini tanishtirgan shaxs fuqaroning nomiga kimlardir kredit olayotgani aytgan. Bundan fuqaro o'zini yo'qotib qo'ygan. Shunda «bank xodimi» agar xohlasa, kreditlarni o'chirib yuborishini, buning uchun turli ilovalarni telefoniga yuklashini aytgan. Qizig'i, fuqaro notanish qo'ng'iroq egasining har bir aytgan gapini so'zsiz bajargan. O'z mobil telefoniga to'rtta bank ilovasini yuklab olgan. Natijada ushbu ilovalar orqali o'z nomiga to'rtta bankdan 15 mln so'm miqdorida kredit rasmiylashtirganini bilmagan. Jami 60 mln so'm mablag'ni o'z plastik kartasiga tushirib olgan firibgarlar izesiz g'oyib bo'lgan.

Holat yuzasidan surishtiruv ishlarida ma'lum bo'ldiki, firibgar chet davlatdan turib jinoyatni



sodir etgan. Shaxsini aniqlashing esa imkon bo'lmadi. Sababi, u Telegram messengerining shaxsni aniqlashing imkon bo'lmagan himoya qatlidan foydalangan.

Fuqarolar «Markaziy bank xodimiman. Sizning nomingizga kredit rasmiylashtirilyapti» degan mazmundagi gaplarga aslo ishonmasligi kerak. Shuni yodda tutish kerakki, Markaziy bank xodimi hech qachon fuqaroga xuddi shu mazmunda qo'ng'iroq qilmaydi.

– **Telegram, Instagramda onlaysavdolar ko'paydi. Shu bo'yicha firibgarlar aniqlanib, jazoga tortildimi?**

– Yangi Namangan tumanida yashovchi fuqaro A.ni notanish shaxs Telegram messengeri orqali aviabilet sotaman, deb aldagan va bank kartasidan salkam 13 mln so'm miqdorida pul mablag'ini o'zlashtirib olgan. Tezkor surishtiruv ishlari davomida mazkur jinoyatni rishtonlik A. sodir etgani ma'lum bo'ldi.

Namangan tumanida yashovchi fuqaro Instagram ijtimoiy tarmog'i-dagi «Nomerlar_uzb» nomli profil egasi bilan o'zaro yozishmalar olib borib, 007-00-00 abonent raqamini onlaysotib olish uchun bank plastik kartasidan 3 mln 655 ming so'mni o'tkazib chuv tushgan. Firibgar Uychi tumanida tug'ilgan M. ekani aniqlandi.

Yuqoridagi holatlar yuzasidan ayblanuvchilarga nisbatan tegishli hujjalalar rasmiylashtirildi.

– **Kibertovlamachilik va unga sabab bo'lvchi holatlar haqida ham ma'lumot bersangiz.**

– Kibertovlamachilik shaxsni, guruhni yoki guruhning biror a'zosini to'lov to'lash yoki o'zlarini xohlagan boshqa ishni qilish uchun onlaysotib olib hisoblanadi. Bunda jinoyatchilar o'zlaridagi mavjud ma'lumotlarni barchaga oshkor qilish bilan

qo'rqtib, jabrlanuvchidan pul, qimmatbaho buyum yoki shunga o'xshash boshqa narsalarni talab qilishi mumkin.

Hozirda ayrim ijtimoiy tarmoqlar o'z foydalanuvchilari ma'lumotlari (surati, tug'ilgan sanasi, ism-sharifi va boshqalar)ni ochiq ko'rsatgani uchun, jinoyatchilar foydalanuvchiga bildirmagan holda, ularni osongina to'play oladi. Ba'zi tajovuzkorlar esa jabrlanuvchi shaxs profili yoki ularning do'stlari bilan bog'lanish orqali foydalanuvchi ma'lumotlariga kirish uchun keyingi qadamlarni qo'yadi. Jabrlanuvchi haqidagi barcha ma'lumotlar to'planganidan so'ng kibertovlamachilik amalga oshiriladi.

– **Piramida ko'rinishidagi onlaysavdolar ko'payib ketishi oqibatida fuqarolarning aksariyati shunga aldanib qolmoqda...**

– Ayrimlarda yengil pul topishga ishtiyoq kuchli va bunga erishayotganlar ham bor. Parfyumeriya, dori-darmon ishlab chiqarish firmalarida faoliyat olib borayotganlarni misol qilish mumkin. Piramida shaklidagi savdoning yomon tomoni shundaki, ozchilik ko'pchilikning hisobiga boyiydi. Har bir a'zodan olingan pulning ma'lum bir qismi o'zidan yuqorida turgan a'zoning hisobiga tushaveradi. Bu turdag'i savdo faoliyatiga yo'l ochib berayotganlar o'zları ongli ravishda shartlariga rozi bo'llib qo'shilishgan. Achinarlisi, profilaktik-ogohlantiruv chaqiruvlariga e'tibor bermasligi oqibatida ayrim fuqarolarimiz ijtimoiy tarmoqlarda oson pul topish yoki tez boyib ketish va'da qilingan ma'lumotlarga aldanishadi.

– **Yurtdoshlarimiz aldrovlar qurbaniga aylanib qolmasligi uchun nimalarga ahamiyat berishlari kerak?**

– Fuqarolar o'zlarini ijtimoiy tarmoqlardagi tahidlardan himoya qilish maqsadida quyidagilarga amal qilishlari tavsiya etiladi:

– o'zingizning shaxsiy suratin-gizni yoki boshqa ma'lumotni yaqin insoningizga, hatto yaxshi ko'r-gan kishingizga (qiz yoki yigitga) yubormang;

– notanish internet foydalanuvchilari bilan aloqa o'rnatmang;

– har qanday ma'lumotni onlaysotib olib oldin to'xtang va o'ylab ko'ring;

– ijtimoiy tarmoqlar orqali shubhalni havolalar kelsa, aslo ularغا kirmang.

O'z muxbirimiz Gulchehra BUVAMIRZAYEVA suhabatlashdi.

Namangan viloyati.

YOSHLAR – KELAJAK BUNYODKORI

VA'DA MUDDATI TERGOVDA «TUGADI»

Asl kasbi quruvchi bo'lgan yangiyerlik Yigitli aka farzandlari ning tarbiyasiga alohida mas'uliyat bilan yon-dashardi. Shu sababdan o'g'li Firdausni to'rtinchisinfdaligida Toshkentdagi harbiylashtirilgan maktabga o'qishga yubordi. Bolaligidan harbiy bo'-lishni orzu qilgan bolakayda vatanparvarlik, sadoqat, fidoyilik tushunchalari aynan shu maktabda shakllandi.



Harbiy xizmatni Farg'onadagi xalqaro aeroportda a'lo darajada o'tagan lavhamiz qahramoni 2019-yili Rossiya Federatsiyasi IIB huzuridagi Belgorod yuridik institutiga o'qishga qabul qilindi. Huquqshunoslikning nazariy sirlarini puxta o'zlashtirgan Firdaus Panjiyev yurtga qaytganidan so'ng Sirdaryo tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limi surishtiruvchisi lavozimida xizmatni boshladi.

Albatta, boshida qiyin bo'ldi. Rossianing o'rmonqa chulg'angan shahrida o'rgatilgan kazuslar, jinoyatni ochishga oid seminarlarda u doim faol bo'lardi. Lekin nazariya boshqa, amaliyat boshqa ekan. Shuning uchun yosh leytenant talabalik yillari amaliyatga kelgani-da tanishgan Yangiyer shahar IIB huzuridagi Tergov bo'limi katta tergovchisi, podpolkovnik Habib Bozorovdan maslahat so'rab turadigan bo'ldi. Ustozlar ko'magida surishtiruv-tergov sirlarini tez o'zlashtira boshladi.

O'tgan yil iyun oyida Sirdaryo tumani IIB huzuridagi Tergov bo'limiga tergovchi etib ta-

yinlangan katta leytenant Firdaus Panjiyevning mas'uliyati endi yanada oshgan.

Yaqinda yosh tergovchi tomonidan firibgarlikka oid jinoyat ishi muvaffaqiyatli fosh etildi. Toshkent shahrida istiqomat qiluvchi J.N. Sayxunobod tumanidagi xizmatdosh do'sti S.E. bilan o'zaro til biriktirib fuqaro K.A.ning ishonchiga kiradi. Ular 2 kishiga haydovchilik guvohnomasi olib berishni va'da qilib, jami 800 AQSH dollarini miqdorida pul olishadi. Oradan olti oylar o'tgach ham va'da bajarilmagach, fuqaro K.A. Sirdaryo tumani IIBga murojaat qiladi. Ariza asosida jinoiy ish qo'zg'atilib, yuqoridagi ikki shaxs topib keltiriladi. Tergov-surishtiruv jarayonida ular o'z ayblarini tan olishiga to'g'ri keldi. Bunda anchagini shakllanib, tajribasi ortgan Firdausning qat'iyati katta rol o'ynadi.

**Abdurahmon MUSTAFOQULOV,
o'z muxbirimiz.**

Sirdaryo viloyati.

PROFILAKTIKA XIZMATI

CHEKKA MAHALLALAR HAM E'TIBORDA

Navbahor tumanidagi mavjud 41 ta mahallada aholisi gavjum joylarda fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilik va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olish maqsadida tuman IIB JXX HPB xodimlari tomonidan samarali ishlar olib borilmoqda.

Yaqinda «Yuqori Beshrabot» mahallasida tashkil etilgan profilaktik tadbir mobaynida ijtimoiy himoyaga muhtojlar, nogironligi bo'lganlar, yakka-yolg'iz istiqomat qiluvchilar hamda probatsiya nazoratidagi shaxslarning xonadonlariga kirilib, muammolar o'rghanildi, ehtiyojmand oilalarga ko'mak ko'rsatildi.

Tug'ma nogiron Kamola Nortoyeva va 87 yoshni qarshilagan Anor aya Fozilovaga tuman IIB Migratsiya va fuqarolikni rasmiylashtirish guruhi xodimlari tomonidan ID-kartasi topshirildi. Bundan tashqari, kasallik va boquvchisini yo'qotganlik uchun nafaqa rasmiylashtirish bo'yicha yo'l-yo'riqlar ko'rsatildi.

– Hududda olib borilgan amaliy ishlar, ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida «Beshrabot»,

«Qiziloy» hamda «Oq oltin» mahallalarining kriminogen vaziyati yaxshilanib, «yashil» toifaga o'tdi. Shuningdek, Mirzo Ulug'bek, «Qorovultepa», «G'ujbog'tepa» va «Chorbog'guzar» mahallalarida huquqbazarlik va jinoyatlarning oldini olish maqsadida savdo do'konlari va ko'chalarda



kuzatuv kameralari o'rnatildi, – deydi tuman IIB JXX HPB boshlig'i, kapitan Vahobiddin O'sarov.

Tumanda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, bandligini ta'minlash, ularga nisbatan sodir etilishi mumkin bo'lgan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olishda va ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan, ishsiz ayollarga ko'mak ko'rsatishdi. Xotin-qizlar masalalari bo'yicha katta inspektor, kapitan Yulduz G'afforova samarali xizmat olib bormoqda.

Mahalladagi aholining muammolarini, turmush sharoiti, vaziyatini shu mahallaga biriktirilgan profilaktika inspektorichalik hech kim yaxshi bilmaydi. Huquqbazarliklar profilaktikasi bo'linmasining xizmat samaradorligi esa profilaktika inspektorlarining bilim va salohiyatiga, tajribasiga va tezkorligiga bevosita bog'liq. Mayor Muslim Aliyev, kapitan Laziz Shermurodov, katta leytenant O'tkir Rahmatov mahallalarda sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyat va huquqbazarliklarning oldini olish borasida namunali xizmat qilmoqdalar.

**Mahliyo XOLOVA,
o'z muxbirimiz.**

SPORTNI SEV, SPORT BILAN YASHA!

VAKILLARIMIZ SOVRINDORLAR SAFIDA

Hammaga ma'lumki, sportda g'alabaga osonlikcha erishilmaydi. Buning zamirida mashaqqatli mehnat, tinimsiz mashqlar yotadi. Joriy yilning 23–26-yanvar kunlari Bu-xoro viloyatida bo'lib o'tgan sambo va jangovar sambo bo'yicha O'zbekiston championatida IIB huzuridagi JIED Tezkor harakatlanuvchi otryadining 14 nafar mohir sportchisi qatnashib, ulardan 11 naafari sovrindorlar safidan joy oldi. Qolaversa, sovrindorlarning 8 naafari mamlakatimiz terma jamoasi safiga qo'shilib, aprel oyida o'tkaziladigan Osyo championatiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi. Musobaqada

o'z vazn toifalari bo'yicha katta leytenant Sohibjon Hasanboyev, G'olib Sulaymonov, Oybek Soliyev birinchi o'rinni egalladilar. Leytenant Elyor Hujimatov, safdorlar Elbek Abdullayev, Muhammadali Sa'dullayev, Islom Nosirov, Shahzod Davronov ikkinchi o'ringa sazovor bo'ldilar. Uchinchi o'rinni esa safdorlar Beknazar To'raqulov, Alison Nodirov, Shohjahon Temirov egalladi. G'oliblarni muborakbodyetar ekanmiz, navbatdagi musobaqalarda ham ularga ulkan zafarlar yor bo'lishini tilaymiz.

**Sadriddin XAYRULLAYEV,
leytenant.**

23-26 YANVAR 2025 YIL



Наши корреспонденты сообщают

■ Ферганская область

ОТ СЕРАЦА К СЕРАЦУ

Дилором Абдуллаева родилась в 1974 году в Кувинском районе. В 1997 году окончила Ферганский государственный университет, с 2001 года приступила к службе в органах внутренних дел.

В образовательных учреждениях, махаллях, на предприятиях, в организациях проводит просветительские мероприятия на темы «Мы против насилия», «Семья – священный очаг», «Права женщин».

В городе проживает свыше 156,9 тысячи женщин. Совместно с заинтересованными организациями изучена ситуация в 2 199 семьях. Оказана практическая помощь в положительном решении 300 из выявленных 410 проблем. Ведется профилактическая работа с 389 женщинами.

Старший инспектор по вопросам женщин СОБ УКД ОВД города Ферганы подполковник Дилором Абдуллаева опытный специалист с 24-летним стажем.



Активность старшего инспектора дает свои плоды. В минувшем году удалось значительно сократить количество преступлений, совершенных женщинами. Подполковник Д. Абдуллаева работает в тесном сотрудничестве с активистами 73 махаллей. Эффективное решение задач требует от сотрудницы большой самоотдачи и ответственности.

Предпринимательскую деятельность сумели наладить 276 женщин. Оказана практическая поддержка 36 соотечественницам в получении льготных кредитов. С целью защиты женщин от притеснения и насилия, проведено более 140 пропагандистских мероприятий. Во взаимодействии с инспекторами профилактики выданы охранные ордера 130 женщинам. В отношении 18 нарушителей, не соблюдавших требования охранного ордера, применены административные меры.

■ Ташкентская область

ВЫЕЗД В ПАРКЕНТ

Рабочая группа в составе сотрудников Исследовательского института криминологии Республики Узбекистан начала деятельность в Паркентском районе Ташкентской области. Цель – изучение вопросов раннего предупреждения преступлений в махаллях, отнесенных к категории «красных», реализация принципа «Безопасная территория».

Состоялось совещание с участием руководства ГУВД области и ОВД района. Определены конкретные задачи по разработке адресных мероприятий, касающихся махаллей Невич, имени Т. Ризаева, Файзиобод, Кизилсой, Давлатобод, Бойкозон, Обжувоз, Нурабод, Теман, Марказий, имени Ойбека, Кургонтепа.

■ Самаркандская область

ПОМОЩЬ РЯДОМ

В махалле Халкабад Пайарыкского района завершается строительство нового здания махалли. Инициатором преобразований стал руководитель третьего сектора – начальник РОВД подполковник Сурач Шарипов.

В районе 65 махаллей, где проживает более 266 тысяч человек. Здесь около 14,4 домохозяйств обеспечиваются сжиженным газом, а свыше 3 тысяч – природным. Реконструировано 2 километра газопровода. В 7 махаллях уложено 9,2 километра асфальта, проведен текущий ремонт 8,6 километра дорог.



В новом двухэтажном здании открыт семейный врачебный пункт «Навои». Это позволило жителям избавиться от необходимости преодолевать значительные расстояния для получения медицинских услуг.

Энергоснабжение также вышло на новый уровень. В махалле Туполос установлен новый транс-

форматор, заменены 65 столбов. Аналогичная работа проведена в махалле Эрназар кургон.

На территории третьего сектора заменено 28 километров линий электропередач, отремонтировано 8 трансформаторов и установлено 3 новых.

Обеспечение водой – одно из приоритетных

направлений. В махалле Хужа Исмоил проложено 18 километров водопроводных сетей, в махалле Полвонарик произведен ремонт электроцеха. Кроме того, в махаллях Чоштепа, имени Мирзо Улугбека и Ахмада Яссави улучшено водоснабжение за счет прокладки 7,5 километра водопровода.



Туман ИИБда

КЕГЕЙПИ: РИВОЖЛАНИШ ЙҮЛИДА...

Кегейли тумани 1928 йили ташкил этилган. Ҳудуд номининг келиб чиқиши шу ердан оқиб ўтувчи канал бўйида кегей дараҳтлари жуда кўп бўлгани билан изоҳланади.

Нукус шаҳридан қарийб 40 км узоқликда жойлашган туман Чимбой, Қораўзак, Бўзатов ва Мўйноқ туманлари билан чегарадош. Таркибида 2 та шаҳарча, 18 та макон ва овул фуқаролар йигини мавжуд.

Бугунги кунда ҳудудда тинчлик-осойишталикни сақлаш, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш юзасидан туман ИИБ ходимлари томонидан қатор ишлар амалга ошириб келинмоқда.

Туман ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш гурухи ходимлари ўтган йилда 2100 дан ортиқ хорижга чиқиш биометрик паспортлари, 12 мингдан ортиқ ID-карталарни ўз эгаларига топширди. Вақтинча яшаш учун келган 629 нафар чет эл фуқароси ҳисобга кўйилди.

Бундан ташқари, хорижга кетиб, узоқ муддатдан сўнг ватанга қайтиш гувоҳномаси билан келган 55 нафар фуқаро билан якка тартибда сұхбатлар ўтказилган.

* * *

Илгари жиноятга қўл урган шахсларнинг қайта жиноят содир этиш ҳолати кўпайғанлиги боис улар билан ишлаш тўғри йўлга кўйилмоқда.

– ўтган йили туман ИИБ Пробация гурухи ҳисобида 67 нафар шахс бўлиб, олиб борилган саъй-ҳаракатлар натижасида йил якунига қадар улардан 26 нафари муддатидан илгари шартли равишда озод этилган. Аксинча, белгиланган тартибга риоя этмагани учун 9 нафар шахснинг жазоси озодликдан маҳрум қилиш жазосига алмаштирилган, – дейди Пробация гурухи катта инспектори, капитан Абдирахман Зарликов.

* * *

Ёшлар ўртасида жиноятчиликнинг олдини олиш, уларни ижтимоий, иқтисодий, маънавий томондан қўллаб-қувватлаш, ҳуқуқий саводхонлигини ошириш мақсадида туман ИИБ бошлиғи томонидан 40 нафар ёш оталиққа олинган бўлиб, ўтган вақт мобайнida мазкур ёшлар билан

учрашувлар, айрим чет элда юрганлари билан онлайн тарзда сұхбатлар ўтказилиб, муаммолари ўрганилди. Ўрганишлар давомида 23 та муаммо аниқланиб, шу кунга қадар уларнинг деярли барчаси ўзининг ижобий ечимини топди.

Бугунги кунда туман 3-секторига бириклирлган ҳудудда 4 та маҳалла мавжуд бўлиб, улардаги 3431 та хонаданда 18 мингдан ортиқ аҳоли истиқомат қиласди.

Биргина ўтган йили сектор ишчи гурухи аъзолари ва тегишли



бор оиласлар билан манзилли тадбирлар амалга оширилди. Бандлиги таъминланиши лозим бўлган 563 нафар фуқародан 345 нафари ишга жойлаштирилди. Шунингдек, «Темир дафтар» рўйхатига киритилган ўта эҳтиёжманд 21 та оила, «Аёллар дафтари»даги 555 нафар

* * *

Ўтган йили тумандаги 500 дан ортиқ турли профилактик тадбирлар ўтказилган бўлса, уларнинг кўнгилдагидек ўтишини таъминлаш мақсадида жалб этилган ходимлар томонидан 150 дан ошиқ ҳуқуқбузарлар аниқланган. Бундан ташқари, жойларда олиб борилган тарғибот-ташвиқот ишлари натижасида 12 та ов куролининг қисмлари ихтиёрий равиша топширилган.

Айни пайтда туман ҳудудидаги жамоат жойларига 84 та видеокузатув камераси ўрнатилган. Ушбу видеокузатув камераларидан 48 таси бевосита Қорақалпоғистон Республикаси ИИБ ва туман ИИБдаги Навбатчилик қисмига интеграция қилинган. Бу, ўз навбатида, жойлардаги ҳолатни реал вақт режимида кузатиш ҳамда жиноятларни тезкорлик билан фош қилишда қўл келмоқда.

**Азамат ПИРНИЯЗОВ,
ўз мухбиримиз.**

Қорақалпоғистон Республикаси.



ташкilotларнинг мутахассислари билан биргаликда аҳолининг қўйи қатламларигача кириб борилиб, оиласларнинг турмуш шароити ўрганилди. Шунга кўра, биринчи навбатда, эҳтиёжманд, боқувчишини йўқотган, ижтимоий-иқтисодий қўллаб-қувватлашга эҳтиёжи хотин-қизга ҳар томонлама ёрдам кўrsатилди.

Ўтган йили маҳаллаларда жами 87 маротаба сайёр қабуллар ўтказилиб, уларда 164 та мурожаатнинг 107 таси ижобий ҳал этилди. Айни пайтда 3 та мурожаат кўриб чиқилмоқда.



Мақолани
қорақалпоқ тилида
ўқиш учун
QR-кодни сканер
қилинг.



 САЛОМАТЛИК САБОҚЛАРИ

ОЗИҚА СОДАСИННИГ ФОЙДАСИ

Озиқа содаси кўпинча ошхонада таом ва ширинликлар тайёрлаш учун ишлатилади. Бундан ташқари, заргарлик буюмларини тозалаш ёки кийимлардаги доғни кетказишда кенг қўлланилади. Бу маҳсулотнинг, шунингдек, косметик ва тиббий ёрдамчи сифатида ҳам машҳур эканини биласизми?

Йўталдан халос этади

Бунда дори-дармонга қўшимча равишда уй шароитида содали қайноқ сув буғида нафас олиш (ингалация) ижобий натижада беради. Бунинг учун қайнатилган 1 литр сувга 1 чой қошиқ сода, шунингдек, 1–2 томчи йод солиб, бошни сочиқ билан ёпган ҳолда 5–10 дақиқа давомида буғни оғиздан ичга ютиш фойдали бўлиб, ушбу муолажани кунига 3–4 марта овқатдан бир соат кейин такрорлаш мумкин.

Болаларда қўллаш мумкини?

Ушбу эритма билан томоқ чайиш бу ишни мустақил бажара олмайдиган болалар учун тавсия этилмайди. Даставвал фарзандни суюқликни ютиб юбормасликка ўргатиш лозим. Фақат шундан кейин чайиш кунига 1–2 марта амалга оширилиши мумкин. Болалар учун қуйидаги рецепт самаралидир: 1 стакан илиқ сувга 1 чой

Тавсияларга амал қилишдан олдин шифокор билан маслаҳатлашинг.

қошиқдан туз ва сода солиб аралаштирилади (тасир кучини ошириш учун 1 томчи йод қўшиш мумкин). Даволаниш муддати – 3–5 кун. Бунда шифокор томонидан буюрилган дориларни ҳам қабул қилиш ўта муҳим.

Ноҳуш ҳидни йўқотади

Инсонни атрофдагилар олдида ноқулай вазиятга солувчи жиҳат – оғиздан ноҳуш ҳид чиқишини бартараф этиш учун тишлар ва бутун оғиз бўшлиғини қўйидаги суюқлик билан чайиш ижобий самара беради: бир чой қошиқ озуқа содасини ярим стакан сувга солиб эритинг ва у билан оғизни чайинг. Натижада оғиздаги ҳид йўқолиб, микроблар эса зарарсизлантирилади.

Стоматитда давоси

Мазкур касаллик қўзғатувчиларга нисбатан иммунитет кучининг намоён бўлиши натижасида юзага келиб, оғиз бўшлиғи-



да чақа ва яралар пайдо бўлиши билан кечади. Стоматитдан халос бўлиш учун 1 стакан сувга 1 ош қошиқдан сода ва туз солиб аралаштиринг. Оғиз чайишни кунига 3–4 марта амалга ошириш мумкин.

Тишларни оқартиради

Ярим стакан илиқ сувга 1 чой қошиқ сода солиб, милкларни чайқаш орқали тиш оғрифидан фориф бўлиш мумкин. Бундан ташқари, бу маҳсулот тишларни оқартирувчи хусусиятга эга бўлиб, бунинг учун нам тиш чўткасини содага ботириб, у билан тишларни ишқаланг. Тозалашдан сўнг 30 дақиқа мобайнида

ҳеч нарса еманг ва ичманг. Бу муолажани иккита ҳафта бир марта бажариш тавсия этилади. Чунки мунтазам ва меъёрдан ортиқ қўллаш тиш эмали емирилишига олиб келади.

Гулчехра
АЗИМОВА
тайёрлади.



САРИМСОҚ ХОСИЯТИ

*Совуқ бўлса агар кишида мижоз,
Саримсоқдан еса, қандай бўлур соз!
Тандан совуқликни қувар саримсоқ,
Белга қувват берар яна еган чоқ.
Ҳарорати борлар ундан емасин,
Сўнгра касал бўлиб қолдим демасин.*



Здоровье

НЕВИДИМЫЙ ВРАГ

Ботулизм – опасное инфекционно-токсическое заболевание, вызванное токсинами бактерии *Clostridium botulinum*. Эти токсины считаются одними из наиболее сильных известных природных ядов. Заболевание поражает нервную систему, вызывая мышечную слабость, паралич, в тяжелых случаях угрожающее жизни нарушение дыхания.

Пути передачи инфекции:

1) через пищу (основной причиной является неправильно приготовленные домашние консервы, рыба холодного копчения, вяленая рыба);

2) раневой – возникает при попадании спор клостридий в рану, особенно глубокую;

3) кишечный (младенческий) – характерен для детей до 12 месяцев; происходит при проглатывании спор клостридий (в основном от меда).

Симптомы

Первые признаки появляются через 12–36 часов после заражения, но могут проявляться в диапазоне от нескольких часов до нескольких дней. Они включают:

– удвоение в глазах, нечеткость зрения;



- сухость во рту, проблемы с глотанием и речью;
- мышечную слабость, переходящую в мышечный паралич;
- при тяжелых формах и при

отсутствии лечения – остановка дыхания.

Профилактика

● Консервирование продуктов должно проводиться при темпе-

туре не ниже 121°C с использованием автоклавов.

● Отказ от употребления подозрительных консервов (воздутые крышки, изменение цвета или запаха).

● Детям до года нельзя давать мед (это исключает риск детского ботулизма).

● Обработка любых повреждений кожи для предотвращения инфицирования.

Факты о ботулизме

Один грамм кристаллического ботулотоксина может убить более миллиона человек.

Несмотря на смертельную опасность, при своевременном лечении уровень выживаемости составляет 90–95 процентов.

Ботулизм – заболевание, требующее незамедлительного распознавания и лечения. Его можно предотвратить соблюдением мер гигиены и безопасного обращения с пищей. Осведомленность и быстрая реакция – ключевые факторы в борьбе с этим опасным заболеванием.

Муроджон АХМАДАЛИЕВ,
врач санитарии и гигиены
ЦСЭН Медицинского отдела
УВД Ферганской области.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz

АЁЛ ВА ЖАМИЯТ

ИШТИЁҚ – ЭЗГУ ИШЛАРГА ҚАНОТ

Ҳаёт кутилмаганда күнгилда ҳавас ортидан орзу, мақсад уйғонишига турткы бўладиган тасодифларга тўла. Капитан Рухшона Жалолидинова ана шундай тасодифий воқеаларни кузатиш ортидан ўзи учун муҳим қарорни қабул қилганлардан бири.

– Ўшанда Самарқанд давлат университетининг тарих факультетида 2-босқич талабаси эдим, – дейди лавҳамиз қаҳрамони. – Паспортимни алмаштириш учун Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш бўлимiga бордим. У ерда ишнинг ниҳоятда режали йўлга қўйилгани, тартиб-интизом, айниқса, ходимларнинг хизмат жараёни менда бошқача таассурот қолдириди. Уйга келибоқ, онамга ўқишини таомомлаб ходима бўлмоқчилигимни айтдим. Улар «Бу касбнинг орзуси осон, аммо меҳнати мashaқатли. Ҳақиқатан ҳам, шу соҳада ишлашга кўзинг етса, мен сени қўллаб-қувватлайман, қизим», дедилар. Шундан кейин телевидениедами, газета-журналдами, ҳатто ижтимоий тармоқлардан ҳам ички ишлар органларига оид бирор маълумотга кўзим тушиб қолса ўқидиган, жон қулоғим билан тинглаб, соҳага оид жиҳатларни кузатадиган бўлдим. Олий даргоҳни тамомлаган заҳотим, ички ишлар органларига хизматга кириш синовларига ҳужжатларимни топширдим. Инсон бирор ишга астойдил ҳаракат қиласа эришар экан. 2018 йилда хизматга қабул қилиндим.

Яна бир жиҳатки, Рухшона Жалолидинова илк хизматини Самарқанд тумани ИИБ Миграция ва фуқароликни расмийлаштириш



бўлимида, паспортчи лавозимида бошлайди. Хизматга бўлган иштиёқи кучли ёш ходимага майор Шоҳруҳ Ҳожиметов устоз сифатида бириклирилади. Зиммасидаги вазифаларни тўқис бажаришга ҳаракат қилиши билан тезда ҳамкаслари ҳурмати ва ишончини қозонган лавҳамиз қаҳрамони ҳозирда Самарқанд вилояти ИИБ ЖХХ ҲПБ катта инспектори сифатида фаолият юритмоқда.

– Оилалардан муроса-мадоранинг қочиши, хотин-қизларнинг турмушидаги муаммолар, фар-

зандларнинг тарбиясига таъсир қилувчи салбий омиллардан кўп ташвишланаман, – дейди у. – Бу борада кўпчилик билан кенгашиб, масалага ижобий ечим топишга ҳаракат қиласиз. Чунки оиласдаги носоғлом муҳит, уруш-жанжал, келишмовчилик унинг ҳар бир аъзосининг кундалик турмушига, албатта, ўз таъсирини ўтказади ва бу кўпинча салбий жиҳат билан сезилади.

Хизматда масъулиятни, инсонийликни, оиласда ўзаро ҳурмат, меҳр-оқибатни қадрлаган ходима

турмуш ўртоғи Алишержон билан ўз баҳт ошёнида Миразимжонни тарбиялашмоқда. У эндиғина тўрт ёшни қаршилаган бўлса-да, бурро-бурро тилида жаранглаган ширин сўzlари, беғубор кулгулари билан ота-онасининг ёнар чироғидир.

– Мен бир умр тадбиркорлик билан шуғулландим, – дейди Гулнора Обидова. – Бироқ ёшлигимда ходима бўлишдек орзум ушалмаган. Тўғрироғи, ўша кезларда қизларнинг бу касбни танлаши, ишлаши учун имкониятлар етарли бўлмаган. Аввало, бунда биз орзуларимиз рўёби йўлида журъатсизлик қилганимиз, деб ўйлайман. Ўғлимга мен учун армон бўлиб қолган касбни танлаган қизнинг тақдирни туташганидан хурсанд бўлганман. Ҳар гал келинимнинг эгнидаги либосига кўзим тушганида, ичичимдан орзуларим ушалгандек, қўзларим қувнаб кетади. Илоҳим, ўғлим билан баҳти ҳамиша тўқис бўлсин.

Аёл ходима бўладими, ўқитувчи, ё шифокор, бундан қатъи назар, атрофида уни тушуниб, эъзозлаб, яхшиликлар соғинувчи инсонлар бор экан, албатта, дилидаги истаклари, мақсадларининг қаноти иштиёқ бўлади. Иштиёқ билан қўйилган ҳар бир қадамдан эзгуликлар унади. Капитан Рухшона Жалолидинова ҳам ана шундай ходималардан бири эканлигига шубҳа йўқ.

**Гулноза ТУРҒУНБОЕВА,
ӯз мухбиришимиз.
Самарқанд вилояти.**

ҚИЛМИШ-ҚИДИРМИШ

«САЁҲАТ» УЗОҚ ДАВОМ ЭТМАДИ

Жорий йилнинг 9 январь куни соат таҳминан 18:00ларда Гурлан туманида яшовчи Камолиддин Турсунов (исм-шарифлар ўзгартирилди) ўзига тегишли бўлган «Gentra» русумли автомашинани дўкон олдида қолдириб, уй-рўзгор ҳариди учун ичкарига кириб кетади. Кўп ўтмай чиқиб қараса, автомашина жойида йўқ әди. Шундан сўнг К. Турсунов «102» қисқа рақамига қўнғироқ қилиб, содир бўлган ҳолатни тушунтиради. Зудлик билан вилоят ҳудудида «Тўсиб ушлаш» тадбири эълон қилинади.



Урганч шаҳридаги Паҳлавон Маҳмуд кўчасида хизмат вазифасини ўтаётган вилоят ИИБ ЖХХ ЖТСБ ППХ батальони 4-отряд инспекторлари, сафдорлар – Шаҳзод Мадаминов ҳамда Обод Матёкубовлар белгиланган ҳудудларда жамоат тартибини сақлаш билан бир қаторда, йўлларда ҳаракатланаётган автомашиналарни ҳам синчковлик билан кузатиб боришади. Шу пайт чорраҳага яқинлашаётган «Gentra» русумли автомашина инспекторлар эътиборини тортади. Буни пайқаган ҳайдовчи чап томонга бурилиб, «жуфтакни ростламоқчи» бўлади. ППХ ходимлари

томонидан кўрилган тезкор чора-тадбирлар натижасида автомашинани олиб қочган шахс дарҳол кўлга олинади.

– Болалиқдан автомашина ҳайдашга қизиқаман, – дейди вояга етмаган М.Р. – Автомашина қалити ўзида қолдирилганини кўриб, уни олиб қочдим. Бироз сайр қилмоқчи эдим. Қилмишдан пушаймонман.

Хуллас, ўсмирнинг «саёҳати» узоқ давом этмади. Атиги қирқ беш дақиқа ичида жиноят «иссиқ изида» фош этилди.

**Саъдулла АБДУЛЛАЕВ,
сафдор.
Хоразм вилояти.**

TANLOV G'OLIBLARI

OMAD MUNOSIBLARGA KULIB BOQADI

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti tizimida el-yurt osoyishtaligi yo'lida sidqidildan xizmat qilayotgan, fidoyi xotin-qizlar talaygina. Ular zimmalaridagi vazifalarni mas'uliyatni chuqur his etgan holda bajarish bilan bir qatorda, turli tanlovlardan, madaniy-ma'rifiy tadbirdalarda ham faol ishtirot etishmoqda.

Yaqinda Departament markaziy apparati hamda Birinchi ministraqaviy hududdagi muassasalarda xizmat qilayotgan xotin-qizlar o'rtaida «Eng yaxshi kitobxon xodima», «Fidoyi ayol» ko'rik-tanlovlari hamda «Zakovat» intellektual o'yini bo'lib o'tdi.

23-sodn MUIK davolash-profilaktik yordam ko'rsatish bo'limi shifokor-kardiolog, mayor Nargiza Muhammadiyeva «Eng yaxshi kitobxon xodima» ko'rik-tanlovida g'oliblikni qo'liga kiritdi. Departament Markaziy omborxonasi katta inspektori, serjant Shahnoza Biyto'rayeva esa «Fidoyi ayol» ko'rik-tanlovi g'olibni bo'ldi.

Ta'kidlash joizki, «Zakovat» intellektual o'yinida g'alaba qozonish uchun shunchaki topqir-

likning o'zigina emas, balki jamoaning hamfikrli, hozirjavobligi ham muhim ahamiyatga ega. Bu talablarni a'lo darajada bajargan Departament jamoasi a'zolari zafar quchishdi.

Mazkur tadbirdalarda tizimda o'zar sog'iom raqobat muhitini shakllantirishda, xodimalarning ma'nnaviy-ma'rifiy bilimlarini oshirishda muhim omil bo'ladi. Qolaversa, tizimdagi xotin-qizlarning istedodlarini namoyon qilishiga imkon yaratadi. Tanlovlarning g'oliblari va faol ishtirotchilari diplom hamda esdalik sovg'alarini bilan taqdirlangani ilg'or, tashabbuskor xodimalarni ruhlantiradi.

Xadicha O'TAYEVA,
kapitan.



TERGOVNI BILIMDONLAR OLIB BORADI

«XATO QILISHGA HAQQIMIZ YO'Q»

Uchko'priq tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i, mayor Oxunjon Hasanov yosh tergovchilardan maslahat va tavsiyalarini hech qachon ayamaydi. Undan huquqiy maslahat so'rangan insonlarga ham baholi qudrat bilganlarini aytib, to'g'ri yo'l ko'rsatadi.

– Tergov ichki ishlardan organlarining juda nozik va mas'uliyatlari yo'naliishlaridan biri, – deydi lavhamiz qahramoni. – Chunki yuritayotgan hujjatlarimiz insonlar taqdiri bilan bog'liq bo'ladi. Tergovchilarining xato qilishga haqqi yo'q. Jinoyatni noto'g'ri malakalash va yanglishish kimningdir nohaq aylanishiga yoki aksincha, aybdorlarning «suvdan quruq chiqib ketishiga» sabab bo'lishi mumkin. Shu bois yosh xodimlarga har bir jinoyat materialini puxta o'rganib, tergovni xolis va adolatli olib borishni eslatishdan charchamayman.



KASB FIDOYISI

Dono xalqimizda shunday naql bor. Axir kichik bir harakatimiz bir insonning mushkulini oson etib, uni xursand qilsa ham, savobli amal sanaladi. Ko'chada ketayotgan yo'lovchiga shunchaki to'g'ri yo'lni ko'rsatib yuborsak, kimdir tushirib qoldirgan buyumni egasiga eltil bersak, o'sha inson bundan qanchalik quvonib, rahmat aytadi. Vaholanki, bunday holatlar Surxondaryo viloyati IIB Xavfsiz turizmni ta'minlash boshqarmasi xodimlari bilan tez-tez sodir bo'ladi.

YAXSHILIKNING KATTA-KICHIGI BO'LMIYDI

XTTB jamoat xavfsizligi bo'limi huquqburzaliklar profilaktikasi guruhi katta inspektori, kapitan Akmal Tagirov ham ana shunday jonkuyar xodimlardan. O'z xizmat vazifasini bajararkan, doim hushyorlikni oshiradi. Chunki tajribasida sayyoohlarining yo'qolgan buyumlarini tezlik bilan topib berish, adashganlariga to'g'ri yo'l ko'rsatish ko'p bora uchragan.

At-Termizi yotirasiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro kurash turniri bo'layotgan mahal edi. Braziliyadan kelgan sportchi Kempingdag'i restoranlardan birida hujjatlari solingan sumkasini unutib qoldirgach, boshqarma xodimlariga murojaat qilishganda, kapitan Akmal Tagirov zudlik bilan ishga kirishib, mehmonning buyumlarini topib bergen.

Kapitan Akmal Tagirov ingliz tilida mukammal so'zlasha olgani uchun sayyoohlar bilan muloqot qilishda bu juda qo'l keladi.

– Qariyb 5 yildan beri shu sohada faoliyat yuritib kelaman, —

deydi lavhamiz qahramoni. — Katta tadbirdalarda mas'uliyatimiz yanayam ortadi. Shunday vaziyatlarda chin yurakdan vazifamni bajarishga kirishtaman. Turli insonlar bilan muloqtda bo'lamic. Jamoat joylarida, turizm obyektlari atrofida jamoat tartibini, yurish-turish qoidalarni buzgan, belgilangan qoidalarga amal qilmagan fuqarolarga nisbatan ma'muriy bayonnomalar rasmiylashtiramiz. Ba'zan esa fuqarolarni ogohlantiramiz. Kasbimni shuning uchun ham yaxshi ko'raman.

Akmal Tagirov qat'iyatliligi va xushmuomalaligi bilan hamkasblari orasida hurmat topgan. U hayotda ko'proq insonlarning qadr-qimmatini, fazilatlarini qadrlaydi. Bugun tizimda shunday yosh, faol, ma'naviyatli xodimlar borligi barchamizni quvontiradi.

Feruza RAHMONQULOVA,
o'z muxbirimiz.
Surxondaryo viloyati.

Mayor Oxunjon Hasanov Uchko'priq tumanining Kaltatoy qishlog'ida tug'ilib o'sgan. 2016-yilda IIV Akademiyasini tugatgach, xizmat faoliyatini viloyat IIB huzuridagi Tergov boshqarmasida boshlagan. Keyinchalik Quvasoy shahri va Rishton tumani ichki ishlar bo'limlari tergovchi, katta tergovchi bo'lib ishladi. 2022–2024-yillarda Dang'ara tumani IIB huzuridagi Tergov bo'linmasi boshlig'i vazifasida faoliyat ko'rsatdi.

Bugun o'zi ham ustoz darajasiga yetgan kasb fidoyisi ustozlari – podpolkovniklar Qahramon Isomov, Orifxon Akbarov, mayor Abror Turg'unovlarga shogird sifatida hamisha ehtirom ko'rsatib keladi.

Abduvosit SIDIQOV,
o'z muxbirimiz.
Farg'onan viloyati.

ОНА ТИЛИМ – ЖОНУ ДИЛИМ

ЭХ, ШЕВАНГДАН АЙЛАНАЙ, ХАЛҚИМ

Ўзбекнинг ўзи қизиқ, ўзидан ҳам сўзи қизиқ. Халқимизнинг севимли сўз устаси Ҳожибой Тоҷибоевнинг бу иборасини бежиз тилга олмадик. Боиси, нафақат адабий тилимиз, балки шеваларимиз ҳам жудаям турфарангки, баъзан нафақат икки вилоятлик, ҳатто икки туманда яшовчилар ҳам учрашиб қолса, ўзаро бир-бирини тушунмасликлари бор гап.

Ўтган асрнинг 80-йиллари энди ўқишига кирган самарқандлик талаба ҳамқишлоғи билан дўконга кириб, сотувчига қараб: «Оқмой борма?» – деб сўрабди. Сотувчи «Йўқ», – дебди. «Соримой-чи?» – деса, «Уям йўқ», – деб бошини чайқабди. Шунда талаба: «Ака, энди биззи тозза қишлоқи, деб устимиздан кулманг-да. Ана турибди-ку, икковиям!» – деб пахта ёғи билан сариёғни қўли билан кўрсатган экан. Чунки Самарқанднинг айрим туманларида пахта ёғини «оқмой», сариёғни «соримой» дейишади-да.

Бир танишимникига қўшни вилоядан қудаси меҳмонга келибди. Гап орасида меҳмон: «Эшитдингизми, фалончи йўқ бўлиб қолибди?» – деса, мезбон: «Вой, нега йўқ бўлади? Йўқолиб қолган бўлса, мелисага хабар бермадила-рингми?» – дебди. Шунда меҳмон: «Бизда вафот этган киши ҳақида шундай деймиз», – дея тушунтирибди. Бундоқ ўйлаб қараса, қўпол қилиб «ўлди» дегандан кўра «йўқолиб қолди» деган қулоққа юмшоқроқ эши-тилади-да.

Ёки юқоридаги каби ўлим ҳақидаги нохуш хабарни бир-бирига етказиша киши кўнглига бирдан озор етмаслиги, тўсатдан қон босими кўтарилиб кетмаслиги учун Самарқанднинг Қўшработ ва Навоийнинг Нурота туманларида «Фалончи кетиб



қолибди-да», – дейишади. Кекса чол ёки кампир оламдан ўтган бўлса, «Фалончи момонг ёки бобонг думалаб қолибди, иймонини берсин», – дейишади. Мабодо марҳум ёш бола ёки ўсмир бўлса, «Бояқиши, нопайт бўлиб қолибди», деб ўксинишлари кимни ҳайратга солмайди? Адабий тилимизда ҳам «вафот этибди, оламдан ўтибди, омонатини топширибди, бандаликни бажо келтирибди» деймиз. Иложи борича «ўлибди», деган совук сўзни қўлламасликка ҳаракат қиласиз.

Жиззах вилоятининг Зомин туманида «фалончи қайтиш қибди, ўтиб қобди, увол бўбди, узилибди, отасини бериб қўйибди, йўқотибди», дейилса, Андижонда «фалончи қайтиш қилибди, бандачилик қилибди,

ди, омонатини топширибди», дейилар экан.

Малика вафот этгани ҳақидаги хабарни Ҳусайн Бойқарога етказиш унинг дўсти Мир Алишерга юклатилган экан. Шунда сўз мулкининг сultonи Навоий бу машъум хабарни «Сарв гулининг соясинда сўлди гул, нетмоқ керак?» деб савол тарзида етказганида, подшоҳ гап нимадалигини тушуниб, унга «Сарвдин тобут ясаб, гулдин кафан бичмоқ керак», – деб жавоб берган. Демак, она тилимизда ҳатто совук хабарни ҳам чиройли тарзда етказиш мумкин экан.

Шеваларни кузатиб, халқимизнинг нақадар зукко, доно, ширинзабон, тилимизнинг эса сержило ва жуда мазмунга бой эканига тобора амин бўла бошлайсиз. Масалан, Қашқадарёда катталарнинг ёшларга қарата «ўлайжон» дейишидан, Самарқандда «ўргулай сандан» деб эркаллашидан кимлар эриб кетмагану, ич-ичидан завқ туймаган дейсиз. Эх, шевангдан айланай, халқим.

Хуллас, ўзаро муносабатларимизда учрайдиган бундай миссолларни жуда кўп келтириш мумкин. Муҳими тилимиз бундай жозибадорлигини сақлаб қолиш ва келажак авлодларга бус-бутун ҳолича қолдиришда. Чунки глобаллашиб, «онлайнлашиб» бораётган ҳозирги замонда юракни асрорчи, кишига руҳий мадад берувчи бундай сўзларни сақлаб қолиш осонга ўхшамаяпти. Хўш, Сиз бунга нима дейсиз?

Шуҳрат РЎЗИЕВ,
ўз мухбиримиз.



ТИЛ САНДИФИДАН

КИРМИ Ё ТОЗА?

ҚАРАМА-ҚАРШИ МАЊОЛАРДА ИШЛАТИЛАДИГАН БИР ХИЛ СЎЗЛАР

ДОРИ

Даволаш – заҳарлаш.

«Дўхтирдори берган. Худо хоҳласа, яхши бўлиб кетадилар» (Тоҳир Малик, «Шайтанат»).

«Бой атайндори бериб қўйган эмиш деб эшитдик» (С.Зуннунова, «Олов»).

БАҲОСИЗ

Қадр-қиммати йўқ – қадр-қиммати баланд.

«Ажаб дунё экан бу ишқ дунёси, аё дўстлар,

Бу дунё деб у дунёни баҳосиз пулга сотдим-ку» (Чўллон, «Қаландар ишқи»).

«Оғзаки халқ ижодиётининг ёзма адабиётга таъсири, айниқса, катта ва баҳосиздир» (Ўзбек тилининг изоҳли луғати, 1-жилд, 2020, 196-бет).

ҮР

Тепалик – чуқурлик.

«Бордию арқон солди, У зимзиё чуқурдан, Қабрдай қўрқинч ўрдан Ойгулни тортиб олди» (Ҳамид Олимжон, «Ойгул билан Бахтиёр»).



«Ўзига қолса, шаҳар деб, қир ошиб, ўр ошиб ўтирамасди-ю...» (Н. Норқобилов, «Бекатдаги оқ уйча»).

КИР

Ювилмаган, ифлос бўлган кийим-кечак – ювилган, тоза кийим-кечак.

«Орифжон пайпоқни ўзи ювади, бошқа кирлар хотинининг бўйнида» (Сайд Аҳмад, «Пайпоқ»).



«Бирин-кетин келинлар чиқиб ҳовлини иғишишира бошлайдилар. Бири дордан кирларни олади, бири чорпояга жой қиласиди» (Сайд Аҳмад, «Келинлар кўзғолони»).

 На перекрестках судеб

С УВЕРЕННОСТЬЮ – В БУДУЩЕЕ



Темур Гилванов до недавнего времени находился в Республиканском учебно-воспитательном учреждении для мальчиков в городе Бахт Сырдарьинской области.

Во время беседы с ответственными сотрудниками МВД, он сказал, что хотел бы обучаться в военно-академическом лицее «Темурбеклар мактаби». Старшие товарищи пошли ему навстречу, справедливо посчитав, что дисциплина, четкий распорядок дня, установленные в лицее, пойдут на пользу. Так Темур был направлен в Нукусский военно-академический лицей МВД Узбекистана «Темурбеклар мактаби».

Педагогический коллектив учебного заведения тепло встретил новобранца, ознакомил с созданными условиями. Темур надел форменную одежду лицеиста, которая, кстати, ему очень идет.

– Видя, как Темур вместе со сверстниками получает

образование, в очередной раз убеждаюсь, насколько гуманна политика нашего государства. Мой сын не чувствует себя чужим, отделенным от общества. Проявленная забота придает ему силы, – говорит мать подростка Светлана Гилванова.

Помимо учебы, Темур занимается в волейбольной секции. Он по-настоящему счастлив, ведь для него открылась новая страница жизни. Чувство вины за проступок, совершенный ранее, уступило место энтузиазму и энергии. А в сердце пробудилась уверенность в будущем.

**Шерзод ИБРАГИМОВ,
подполковник.**

Республика
Каракалпакстан.

 Учебно-тактические занятия

ПОВЫШАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЕ МАСТЕРСТВО

В Ургенчском районе проведено совместное учебно-тактическое занятие. Отрабатывалось взаимодействие правоохранительных органов.

В соответствии с планом до участников были доведены цели и задачи занятия. С получением сообщения о его начале территория была оцеплена, осуществлена эвакуация лиц, находившихся поблизости.

– Командно-штабные и специальные тактические


учения проводятся на системной основе. Цель – повышение боеготовности и профессионального мастерства сотрудников, обеспечение оперативного реагирования при возникновении чрезвычайных ситуаций, – говорит инспектор по особым поручениям военно-

мобилизационного отдела областного УВД подполковник Темур Артиков. – Также организуются практические и теоретические занятия для оперативных дежурных.

**Худойберган
ЖАББОРОВ,**

соб. корр.

Хорезмская область.



Совет ветеранов МВД Республики Узбекистан извещает о кончине ветерана органов внутренних дел полковника в отставке **ПИЛИПЮКА Виктора Дмитриевича** и выражает искренние соболезнования родным и близким покойного.



www.postda.uz



t.me/postdarasmiy



www.facebook.com/postdauz



www.instagram.com/postda_uz



Газетамиз муштариyllари серқирра ижодкор, ажойиб ва меҳрибон инсон, Шаҳзода Худойбердиевани яхши эслашади. Шаҳзода опа узок ийллар ИИВ Бирлашган таҳририятида фаолият юритиб, ўзининг таъсирчан суд очерклари, қизиқарли ҳикоялари ҳамда дилбар шеърлари билан газетхонларимиз қалбидан чуқур жой олган эди. Қўйида ижодкорнинг қаламига мансуб ҳазил шеърни эътиборингизга ҳавола этамиз.

МЕН ЎГЛИНГИЗ БЎЛАМАН

Тўйдан олдин қоматига
Боқди келин сукланиб.
Менинг ёрим миршаб, дея
Тўйини кутди ёниб.
Тўй ўтди-ю, ҳафта ўтмай,
Куёв қолди нарядда.
Қошда ўсма, кўзда сурма,
Кутар келин ҳайратда.
Командири сал чатоқроқ,
Урф-одатни билмади.
Чиллали-ку күётўра,
Үйга борсин, демади.
Шу тариқа, ўтар ойлар,
Келинпошша кўникди.
Сержант ёрин
гоҳ соғиниб,
Гоҳ кутишдан зерикид.
Синглисини узатганда,
Почча бўлмиш келмади.

Хизматчилик, тўнгич ўғил
Туғилди ҳам, билмади.
Уч кун ўтгач, хабар топиб,
Байрам қилдилар ҳафта.
Жавоб тегди чақалоққа,
Лейтенант-чи, нарядда.
Узун тунлар мудраганча
Кутар ўғлию ёри.
Капитан ҳеч вақт
тополмас,

Кўйвормас касбу кори.
Шу тариқа, кун ўтибди,
Ўтар ийллар шувиллаб.
Майор доим вақти тифиз,
Келиб-кетар зувиллаб.
Бир кун тунда келса ёри
Бир ўйит-ла ётганмиш.
Бир хонада... кўриб буни
У ғазабдан қотганмиш.

Урмоқ бўлиб, камарини
У қўлига ўрабди.
Шахт-ла тепиб,
сўнг ўйигитнинг
Кимлигини сўрабди.
– Вой-дод! – дебди рафиқаси,
Ҳой дадаси,вой шўрим!
Дадагинанг танимапти,
Ўзингни танит, ўғлим!
– Дада! Ўртоқ
подполковник!
Мен юглингиз бўламан.
Уйда қолинг!
Ўрнингизга
Мен нарядга бораман!
Дадасининг чехрасини
Қоплабди кулги-ҳайрат.
Ҳу, бешикда кўрган ўғли
Бўлган экан лейтенант...

ФОТОЛАВҲА



Ишончли ёрдамчи,
содиқ дўстдирсан,
Тилу забонсиз
жонзотсан гарчи.
Ҳар гал сенинг
таъзиминг кўрсам,
Сенга ҳам соғлиқ
тилайман «Арчи».

Суратда: ИИВ
Қоровул қўшин-
ларига қарашли
7531-ҳарбий қисм
йўриқчи-ўргатувчи-
си, кичик сержант
Исломжон Абду-
раҳимов «Арчи»
лақабли хизмат ити
билан.

Абу КЕНЖАЕВ,
ўз мухбиришимиз.

Мунажжимлар башорати

(3—9 февраль)



Қўй. Ҳафтанинг биринчи ярмида оғир ёки давомли меҳнатдан имкон қадар йирок туринг. Чунки бу вақтда саломатлигингиз панд бериши мумкин. Кейинги кунлар молиявий даромад ва иш фаолиятидаги ўсишни ваъда қилмоқда. Дам олиш кунларини оила даврасида ёки табиат қўйнида ўтказишга ҳаракат қилинг.



Бузоқ. Бу ҳафтани янги ишларни резжалаштириш учун сарфланг. Имкониятларингиздан келиб чиқиб, муҳтожларга хайр-эҳсон қилинг, ҳамдардлик ва марҳамат кўрсатинг. Бу сизни шахс сифатида юксалтиради.



Эгизаклар. Асосий вазифа ва мажбуриятларингизни унугиб қўйманг. Кўзланган мақсаддаг эришиш учун янада фаол ҳаракат қилинг. Сиз учун сешанба энг самарали кун бўлиб, фойдали ва истиқболли ишларга кўл урасиз. Бунда ҳеч иккиланмай бор истеъдодингизни ишга солинг. Ҳафта сўнгига режада бўлмаган харажатлар кузатилиши мумкин.



Қисқичбақа. Ҳамкасларлар ва оила аъзолари билан ўзаро муносабатларда муаммолар юзага келиши мумкин. Истасангиз ҳам, истамасангиз ҳам хушумомала ва назокатли бўлишингизга тўғри келади. Шу тариқа сиз сабрсизлик ва қаҳр-ғазаб намоён бўлишига йўл қўймай, мазкур вазиятдан яхшилик билан чиқиб кетиш имкониятига эга бўласиз.



Арслон. Сиздан касбий соҳа ва бизнесда ўз устида ишлаш талаб этилади. Зўр файрат ва иштиёқ билан меҳнат қилиб, ижодий ғояларни ҳаётга татбиқ этинг. Уй-рўззор ишларини кейинга қолдирманг. Ҳар қандай олинган натижадан қувонишга ҳаракат қилинг.



Паризод. Ушбу даврда жамиятдаги мавқеингиз ортиши, шунингдек ҳам-каслар ва яқин кишилар билан хайрли ва ўйғун муносабатларнинг ривожланиши кутилмоқда. Ҳафта сўнгига дам олиш, саёҳат қилиш ёки қўнгилочар масканларга бориш фойдалан холи бўлмайди.



Тарози. Ҳафта ўрталарида иш ва оиласда муайян муваффақиятлар кузатилиши кутилмоқда. Яқинларингиз билан мулоқот қилишда хушумомалаликни унутманг, акс ҳолда, кутилмаган ноўрин тортишувлар келиб чиқади. Салбий ҳиссиятлар саломатликка акс таъсир кўрсатиши мумкин.



Чаён. Ҳафта боши иш жараёнлари – турли музокаралар, учрашувлар, фойдали алоқалар ўрнатиш учун қуляй давр. Чоршанба ва пайшанба кунлари шовқинли ва қувноқ давралардан узоқ туринг. Якшанбани мириқиб дам олишга бағишилаган маъқул.



Ўқотар. Ички сезиш ҳисси огохлантираётган белгиларга беэътибор бўлманг. Қатъият ва мақсад сари интилиш туфайли ишда, молиявий масалаларда ва шахсий муносабатларда муваффақиятга эришасиз.



Тоғ эҷқиси. Кўпроқ изланишда бўлинг, имкон қадар такомиллашиб ва ривожланиш сари олға қадам ташланг. Ҳамкаслар орасидан муносиб дўстларни топишга интилинг, шунда ишдаги кўпгина масалаларнинг ҳал этилиши муваффақиятли кечади.



Қовға. Бу ҳафта ўйламай иш қилишдан қочинг. Чунки шу кунларда ҳаётингизда иккиланиш, ишончсизлик, ёлғизлик, атрофдагиларнинг сизни нотўғри тушуниши каби ҳолатлар кузатилиши мумкин. Унутманг, сизга ушбу вазиятдан чиқиб кетишга фақат иродада кучи ва соғлом тафаккур ёрдам беради. Бу даврни енгид ўтишда яқин кишилар ва дўстларингиз елқадош бўлишиади.



Балиқ. Одамлар билан муносабат ўрнатишда ва иш жойингизда фаолроқ бўлинг. Ҳар жабҳада ақл-заковат ва яхши дид эгаси эканингизни исботланг. Ушбу ҳафта кутилмаган пул тушуми кайфиятингизни кўтаради. Оила аъзоларингиз билан дам олиш кунлари табиат қўйнига сайдрга чиқинг.

MUASSIS:	
О'zbekiston Respublikasi Ichki Ishlar vazirligi	
Bosh muharrir	Mas'ul kotib
polkovnik Bernora SADIKOVA	Erkin SATTOROV
Bosh muharrir o'rinnbosarları	Sahifalovchilar
podpolkovnik Azizjon FAYZIYEV kapitan Aziza BOHODIROVA	Zokir BOLTAYEV Ilhom JUMANOV Akbar BOLTAYEV
Navbatchilar	Fotomuxbirlar
Kapitan Mixli SAFAROV Radik TUMPAROV	Abu KENJAYEV Ikrom HASANOV

Tahririyatga kelgan qo'lyozma va suratlар egasiga qaytarilmaydi. Nashrimizdan ko'chirib bosilganda manba ko'rsatilishi shart. Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi va sahifalandi.

TELEFONLAR:

71-231-33-88;

Obuna masalalari bo'yicha:

71-231-38-74;

97-420-89-24

Web-site: www.postda.uz

E-mail: info@postda.uz

Tahririyat hisob raqami

h/r 2340200030010001010.

Bank kodi 00014.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot
va moliya vazirligi g'aznachiligi.

Shaxsiy h/v

470010860262877031101179001

STIR 200637499.

«Kolorpak» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: 100206

Yunusobod tumani,

Yangishahar ko'chasi 1^ч-uy.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 0120-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Buyurtma №254.

Bosilish – ofset usulida.

Bichimi – A3. Hajmi – 6 bosma taboq. 46228 nusxada chop etildi.

Obuna raqamlari:

Yakka tartibda – 180.

Tashkilotlar uchun – 366.

Bosishga topshirish vaqt – 22.00.

Bosishga topshirildi – 21.00.

Sotuvda kelishilgan narxda.

MANZILIMIZ: 100070, Toshkent shahri,
Shota Rustaveli 1-berk ko'chasi 9-uy.

